

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: Mustaqil O'zbekiston yildan- yilga rivojlanib, oliy maqsad sari ildamlamoqda. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot uchun, olib borilayotgan amaliy islohotlar birinchi o'rinda inson va uning manfaatlarini ko'zda tutadi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadi har bir fuqaro uchun sharaflı ma'suliyat yuklaydi. Yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash va bu yulda fidoiylık ko'rsatish, darhaqiqat sharaflı vazifadir. Zero, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot xususiyatlarini tahlil etarkanmiz, xalq fidoyiligi va vatanparvarligi, taraqqiyotning asosiy omillaridan bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan, tadqiqotchi olimlar zimmasiga ham mazkur muqaddas ma'suliyat yuklanadi. Tarixchilar nafaqat mamlakatimizning boy tarixini, balki xorijiy sharq va g'arb mamlakatlarining tarixiy taraqqiyot xususiyatlari va tarixiy tajribalarini tadqiq etish orqali mamlakat rivoji uchun muhim hissa qo'shishlari lozimdir. "Binobabarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizda o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriytlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvida erkinlashtirish, huquq va erkinliklarini, fikrlar rangbarangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz."¹ Shu nuqtai nazardan jahon tamaddunining bir qismi bo'lgan Turkiyaning bugungi siyosiy va ijtimoiy manzarasini tahlil etish dolzarblık kasb etadi.

Turkiyaning geostrategik joylashuvi, shuningdek etnomadaniy xususiyatari, uning xalqaro munosabatlaridagi mavqe'yi bilan birga, davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy partiyalari faoliyatiga ta'sir etgan. Turkiyada G'arb va Sharq madaniyatlari to'qnashganini, sivilizatsiyalar muloqotining o'ziga xos samaralarini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, davlat va jamiyat boshqaruvida ham o'z ifodasini topgan.

Turkiya siyosiy partiyalari tarixini o'rganish qo'ydagi jihatlari bilan dolzarblık kasb etadi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008, -B. 114.

Birinchidan, Turkiya o`z geosiyosiy maqomi va etnomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat va jamiyat hayotida G`arb an`analarini olib kirgan. Siyosiy partiyalar g`arblashuv jarayoni soyasida Turkiya jamiyatida qaror topgan demokratik qadriyat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Turkiya siyosiy partiyalar faoliyatini tadqiq etish orqali, g`arb a`nanalari sharq tamaddunining bir qismi bo`lgan Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday aks etganini bilishimiz mumkin bo`ladi.

Ikkinchidan, biz yashayotgan davr globallashuv davridir. Dunyodagi bo`layotgan siyosiy va ijtimoiy o`zgarishlar umumiylik kasb etishi mazkur davrning asosiy xususiyati hisoblanadi. Yaqin yillar ichida bir qator arab davlatlarida “arab bahori” nomi bilan yuz bergan ijtimoiy-siyosiy to`lqinlar sharq mamlakatlaridagi demokratik xususiylarni bahsli mavzuga aylantirdi. Ma`lumki siyosiy partiyalar harqanday siyosiy o`zgarishlarning ijodkori hisoblanadi.

Uchunchidan, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a`zo bo`lishi zamonaviy tarixning bahsli va dolzarb masalalaridan sanaladi. Siyosiy partiyalar faoliyati esa, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a`zo bo`lishi uchun ahamiyatlidir.

“Turkiyaning Yevropa Ittifoqi a`ziligiga nomzod sifatida qabul qilinishi, siyosiy partiyalar ahamiyatini yanada oshiradi. Zero, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga hamkor etadigan darajadagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy reformalarning ijodkori shubhasiz siyosiy partiyalardir. Bundan ham muhimi, Turkiyani o`z a`ziligiga nomzod sifatida qabul qilgan Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarda siyosiy partiyalar demokratiyaning markazida turadi”.¹

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Turkiyada XX asrning ikkinchi yarmida siyosiy partiyalar faoliyati va uning mamlakatning ijtimoiy siyosiy hayotida tutgan o`rni va rolini o`rganish tadqiqot ishining asosiy ob`ekti hisoblanadi.

Turkiyada faoliyat olib borgan va borayotgan siyosiy partiyalar tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Mazkur tadqiqot ishida Ikinchi jahon urushidan so`ng, Turkiya siyosiy partiyalari faoliyatini, siyosiy partiyalarning

¹ Ömer Çaha . Türkiye’de siyasal partiler ve Arupa Birliđi.-Istanbul:Istanbul yayınlari, 2000,- S.125.

mafkuraviy xususiyatlarini tahlil etish, Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyatini tashkiliy- huquqiy asoslarini manbalar va hujjatlar, ilmiy asarlarni o`rganish asosida tadqiq etish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishda qo`ydagi vazifalarni hal etish ko`zda tutilgan:

- Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining qaror topishi va uning mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotidagi ahamiyatini yoritish;

- 1960-1970 yillardari siyosiy o`zgarishlar va uning siyosiy partiyalar faoliyatiga ta`sirini manbalar asosida ochib berish;

- 1980 -2000 yillrda Turkiya siyosiy tarixida muhim rol o`ynagan siyosiy partiyalar va ularning faoliyatini baholash;

- Siyosiy partiyalar mafkurasida din, sekulyarizm, liberalizm g`oyalari va globallashuv jarayonlari qanday aks etganini tahlil etish;

- Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy- huquqiy asoslari va iqtisodiy-molyaviy manbalarini yoritish;

- O`zbekiston va Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining o`ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil etish;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Siyosiy partiyalar g`arblashuv jarayoni soyasida Turkiya jamiyatida qaror topgan demokratik qadriyat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Turkiya siyosiy partiyalar faoliyatini tadqiq etish orqali, g`arb a`nanalari sharq tamaddunining bir qismi bo`lgan Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday aks etganini bilishimiz mumkin bo`ladi.

Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati Turkiya demokratiyasining ajralmas qismi va asosiy timsoli bo`libgina qolmay, demokratik taraqqiyotni baholashda mezon bo`lib xizmat qiladi.

Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining qaror topishida ichki omillar qatori tashqi omillar ham ta`sir etganki, bu bevosita Turkiyaning ikkinchi jahon urushidan so`ng AQSh bilan olib borgan yaqinlashuv siyosati bilan bog`liq.

Turkiya siyosiy partiyalari o`z siyosiy dasturlarida turli maqsad va vazifalarni olg`a sursalarda, davlatning ramiy ideologiyasi soyasida, mushtarak milliy mafkura asosida faoliyat olib boradilar.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili: Turkiya siyosiy partiyalari faoliyati Turkiya tarixi va ijtimoiy siyosiy tadqiqotlarda ko`p o`rganilgan mavzu bo`lsada, O`zbekiston sharqshunosligida yangi mavzu hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida asosan turk, rus va ingliz olimlari asarlariga murojaat qilindi. Bular orasida Akşin Sina, Sağlam Fazıl, Ozan Örmeci, Tefvik Çavdar, Erdoğan Mustafa, Ömer Çaha, Yararsoy Dursun, Kapani Münci, Ahmet Taner, Akyol Ozgun, Mehter Hamdi, Marşap Beyhan, Yıldız Akbulut¹ asarlarini alohida ajratib ko`rsatish mumkin. Mazkur asarlarda Turkiyaning ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tilgandan keyingi tarixida siyosiy partiyalar faoliyati va ularning mamlakat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotidagi ta`siri atroflicha yoritilgan. Turkiyaning ijtimoiy, siyosiy hayotiga siyosiy partiyalarning kirib kelishi va ko`ppartiyaviylik tizimi qaror topishining ijtimoiy, siyosiy omillari tarixiy dallilar asosida bayon etilgan. Jumladan, tarixchi Ashkin Sina Turkiyada siyosiy partiyalarining paydo bo`lishini g`arblashuv jarayonlari bilan bo`g`laydi. Agar, Usmonli imperiyasining g`arb davlatlari bosimi ostida ijtimoiy, siyosiy reformlarni amalga oshirganidan so`ng, siyosiy partiyalar tashkil topganini inobatga olsak, olimning fikri asosli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Yana bir turk tarixchisi Ozan Örmeci Turkiyaning

¹ Akşin Sina. Kısa Türkiye Tarihi.- İstanbul.: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008,-400 s./ Sağlam Fazıl. Siyasal Partiler Hukukunun Güncel Sorunları.-İstanbul.:Beta Yayınları, 1999,-143 s/ Tefvik Çavdar.Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara...İmge Kitabevi, 1999,- 238s./ Erdoğan Mustafa. Liberal Toplum ve Liberal Siyaset - Türkiye'de Demokrasiye Geçişin Deneyimi (1945-1950).-Ankara: Siyasal Kitapevi, 1992,-228 s./Ömer Çaha.Türkiye'de siyasal partiler ve Arupa Birliği.-Ankara.:İstanbul yayınları, 2000,-78 s / Yararsoy Dursun.Temsili Demokrasinin Gelişiminde Siyasal Partiler Kavramı.- websitem.gazi, 2000, - 58 s./ Kapani Münci.Politika Bilimine Giriş.-İstanbul: Bilgi Yayınevi, 1992, -400 s./ Ahmet Taner. Siyaset Bilimi.- Eskişehir:Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2004,-368 s./ Akyol Ozgun.Türkiye'de Siyasi Partilerdeki Mevcut Muhasebe Sisteminin İncelenmesi ve Denetimi. – İzmir: Dokuz Eylül Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2009,-188 s./ Mehter Hamdi. Siyasi Partilerin Mali İşlemleri ve Denetimleri- Ankara: Turmob Yayınları, 2008,-168 s./ Marşap Beyhan ve Yıldız Akbulut.Türkiye'de Siyasi Partilerce Uygulanan Muhasebe Sisteminin Değerlendirilmesi ve Kamuyu Aydınlatma İlkesi Açısından Siyasi Partilerde Uygulanacak Muhasebe Sistemi ve Muhasebe Denetimi Onerisi//Muhasebe ve Denetime Bakış Dergisi. – Ankara: TÜİK, 2011,- S.7.

ko`ppartiyaviylik siyosiy tizimiga o`kishida xalqaro ta`sirlar, Ismet Inenyu faktori va ba`zi sinfiy o`zgarishlar kabi muhim omillar farqli darajada rol o`ynagani tarixiy misollar asosida yoritgan. Siyosatshunos olim Ömer Çaha esa, siyosiy partiyalar faoliyati Turkiyaning Yevropa ittifoqiga a`zo bo`lish uchun olib borayotgan harakatlarining istiqbollari uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritgan. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga hamkor etadigan darajadagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy reformalarning ijodkori shubhasiz siyosiy partiyalar ekanligini, Turkiyani o`z a`ziligiga nomzod sifatida qabul qilgan Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarda siyosiy partiyalar demokratiyaning markazida turishini takidlab, Turkiya siyosiy partiyalar faoliyati erkinligida ba`zi muammolar borligini aytib o`tgan. Bunga misol qilib, ko`ppartiyaviylik tizimiga o`kishidan bugungi kunimizgacha yegirma oltita siyosiy partiya yopilganini ko`rsatgan. Turkiya siyosiy partiyalarining tashkiliy - huquqiy asoslari haqida ilmiy tadqiqot olib borgan Sag`lam Fazil esa, siyosiy partiyalar faoliyatiga doir, huquqiy me`yorlarning yaratilish tarixini va muammolarini yoritgan. Uning tadqiqotlarining ahamiyatga molik jihati shundaki, Turkiyadagi siyosiy partiyalar qonunchiligini Yevropa davlatlari bilan taqqoslagan.

Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyatiga doir birqancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, “1982-yilgi Konstitutsiyadan so`ng, Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati va saylov tizimi” mavzusida tadqiqot olib borgan Abdulloh Aydin Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati va saylov tiziminining rivojlanish tarixi va 1982-yildan keyin siyosiy partiyalar va saylov tizimidagi o`zgarishlarni yoritgan. Esen Hamdining “Siyosiy partiyalar mafkuralarida demokratiya va iqtisodiy kategoriyalar” mavzuidagi tadqiqot ishi siyosiy partiyalarining ideologiyalariga bag`ishlangan.

Bundan tashqari, mazkur mavzuga oid rus olimlari tomonidan yaratilgan asarlar ham tadqiqot ishini olib borishimizda manba bo`lib xizmat qildi. Bulardan: Danilov V.I, Kireyev N.G, Fadeyeva I.I, Дружиловский С.Б Kondokchan R. S¹

Данилов.В.И. Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжится- Москва:Восток,1998,-380.с./ Киреев Н.Г.История этатизма в Турции. –Москва.:Наука, 1991,-467 с.

asrlarini ko`rsatish mumkin. Bu asarlarda Turkiyaning siyosiy tarixi va siyosiy partiyalarning mamlakat hayotida tutgan o`rni haqida qimmatli ma`lumotlar berilgan. Jumladan, Danilov V.I. Turkiyada ikkinchi jahon urushidan so`ngi o`zgarishlarni tadqiq etib mamlakatning siyosiy o`zgarishlariga AQSH bilan yaqinlashuv siyosati sabab bo`lganiga urg`u beradi. Uning asaridagi ahamiyatli jihat shundaki, Turkiyadagi ikkinchi jahon urushidan so`ng sodir bo`lgan ijtimoiy, siyosiy jarayonlarni dunyoda bo`lagn voqe`liklar bilan bo`g`likda yoritgan. Bundan tashqari, Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimi qanday samaralarga olib kelganini tarixiy misollar bilan ochib bergan. Kireyev N.G. esa, o`z asarida Turkiyada etatizmning asosiy xususiyatlarini ko`rsatgan. Olim sikulyarizm va diniy g`oyalarni turk jamiyatida qanday uyg`unlashganini misollar orqali ochib bergan.

Tadqiqot jarayonida ingliz olimlarining asarlari va shu mavzuga daxldor ilmiy maqolalariga ham murojaat qilindi. Chris Patten, Keyman Fuat, Soner Chag`aptay, Rosemary Pennington¹ kabi olimlar tomonidan yaratilgan ingliz tilidagi adabiyotlardan foydalanildi. Ingliz, rus va turktilidagi adabiyotlardan foydalanish tadqiqotda diskors tahlil uslubini qo`llashshga zamin hozirladi.

O`zbek olimlaridan prof. A.M.Qosimov²ning Turkiya haqida yozgan asarlari va tadqiqot ishlaridan foydalanildi. Olimning Turkiyaning ijtimoiy siyosiy tizimiga oid yozgan asarlari tadqiqot uchun muhim manba bo`lib xizmat qildi. Xususan, A.M.Qosimovning “Hozirgi Turkiya” asarida Turkiyaning yangi davr tarixidan tortib etmodaniy va geosiyosiy xususiyatlarigacha bayon etilgan. Mazkur asar,

Дружиловский С.Б.О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока (Иран, Афганистан, Турция).– Москва: Институт востоковедения РАН, Крафт+, 2001,-425.c/ Дружиловский С.Б. Исламская модель развития , Мусульманские страны у границ СНГ (Афганистан, Пакистан, Иран и Турция – современное состояние, история и перспективы). – Москва: Институт востоковедения РАН, издательство Крафт+, 2002,-114.c

¹ Chris Patten .Turkey — The EU’s Gate to the World. Monday.-London, 2004.-148 p./ Soner Cagaptay, Duden Yegenoglu, and Ekim Alptekin .Turkey and Europe’s Problem .Noyabr 2, 2005./ Keyman, Fuat E. The Principle of Fairness in Turkey- EU Relations).-Ankara: Siyasal Kitapevi, 2004,-228 p.

Siyosiy partiyalar faoliyatini Turkiyaning ijtimoiy, madaniy hayoti bilan bog`liqlikda tadqiq etish uchun imkon beradi.

Tadqiqotda qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi: Tadqiqot zamirida asosiy ilmiy konsepsiya masalasiga tarixiy haqiqat asosida yondashish bo`lib, unda Turkiya siyosiy partiyalari faoliyati tarixiylik, ilmiylik va xolislik tamoyillariga tayangan holda tahlil qilindi. Tadqiqotni yozishda bugungi kunda keng qo`llanilayotgan zamonaviy tarixni o`rganish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil uslubidan samarali foydalanildi. O`zbekiston va Turkiya ko`ppartiyaviylik tizimi qiyosiy tahlil uslubi orqali tadqiq qilindi. Bundan tashqari, tarix o`rganishning xronologik uslublaridan foydalanildi. Siyosiy partiyalar faoliyati davrlarga bo`lib tadqiq etildi. 1960, 1970, 1980-yillardagi siyosiy jarayonlarning o`ziga xos jihatlari mazkur uslub yordamida yoritildi. Ingliz, rus va turk olimlarining asarlaridan diskors uslubi asosida foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari ilmiy to`plamlarda ikkita maqola va ilmiy anjumanlardagi ma`ruzalarda o`z aksini topgan. Tadqiqot natijalaridan Turkiya tarixi va Turkiya ijtimoiy- siyosiy tizimi fanlarini o`rganishda, shuningdek turli ilmiy anjumanlarda, Turkiya tarixiga bag`ishlangan tadqiqotlarda manba sifatida foydalansa bo`ladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tadqiqotda Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati va uning mamlakat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga ta`siri (XX asrning ikkinchi yarmi) mavzusi ilk bor tarixiy tadqiqot sifatida yoritildi.

Tadqiqotda ko`zda tutilgan asosiy ilmiy yangiliklar qo`ydgilardan iborat:

- Turkiya Respublikasi tashkil topganda bir partiyaviylik tizimi barqaror bo`lishiga qaramay, ko`ppartiyaviylik tizimiga harakatlar bo`lgani, hatto M.K.Otaturk ham bunga xayrixoh ekanligi tarixiy faktlar asosida ochib berilgan;

- Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining qaror topishida ichki omillar qatori tashqi omillar, jumladan Ikkinchi jahon urushidan keyin demokratik qadriyatlarning keng qanot yozishi, Turkiya tashqi siyosatda AQSh bilan yaqin

siyosat olib borganligi, Ikkinchi jahon urushidan so`ng, bir partiyaviylik totalitar tizimining salbiy jihatlari namoyon bo`lgani ahamiyat kasb etgani asoslab berilgan;

- Turkiya siyosiy partiyalar faoliyati Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a`zolik istiqbollari uchun katta ahamiyatga molik ekanligi tahlillar orqali isbotlab berilgan;

- Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati va ko`ppartiyaviylik tizimi O`zbekiston ko`ppartiyaviylik tizimining o`ziga xos va umumiy jihatlari doir qiyosiy tahlil natijasida kerakli xulosalar olindi.

- Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati va uning mamlakat ijtimoiy, siyosiy hayotiga ta`siri mavzusi ilk bor turk, ingliz va rus tilidagi adabiyotlardan foydalanib, diskors tahlil qilindi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati, hamda tadqiqotga doir ilovalardan iborat

I-bob.Ikkinchi jahon urushidan so`ng Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyati

1.Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining qaror topishi va uning mamlakat ijtimoiy- siyosiy hayotidagi ahamiyati

Demokratik hayotning asosiy shartlaridan biri ko'ppartiyaviylik masalasidir. Demokratik jamiyat albatta, ko'ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Ko'ppartiyaviylik, avvalo jamiyatda o'z manfaat va qarashlaridan qat'iy nazar har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning o'z maqsad va intilishlarini to'liq aks ettira olish imkoniyati bilan xarakterlanadi. Har qaysi partiya xalqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch sifatida turli manfaat va qarashlarni o`rtaga qo`yadi. Vatan, millat manfaati kabi mushtarak maqsadlar yo`lida birlashsalarda, davlat va jamiyat hayotini xilma- xil fikrlar kurashi soyasida rivojlantiradilar. Bugun demokratiya libosini keygan ko`pchilik davlatlar shuyo`ldan bormoqda. Biroq, ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tish jarayonlari turli davlatlarda turli bosqichda va o`ziga xos xususiyatlar bilan sodir bo`lgan. Tadqiqot ishimizning markazida turgan Turkiya ko`ppartiyaviylik tizimi ham ushbu xususiyatlarni aks etadi. Turkiya jumhuriyati Mustafo Kamol Otaturk yetakchiligida 1923 yil 29-oktyabrda Usmonli imperiyasining siyosiy va boshqaruv an`analaridan umuman farq qiluvchi g`oyalar asosida qurilgan. Usmonli imperiyasining diniy va monarxik boshqaruv tamoyillarini tark etib, o`rniga laitsizm va milliy davlatchilikga asoslangan, modern va ratsional g`oyalar aks etuvchi tuzum tashkil etilgan. Biroq, bu inqilobiy o`zgarishlar 1945- yilgacha davom etgan bir partiyaviylik, muxolifatsiz rejimning hukumronligiga yo`l ochdi. Bu davrda ko`ppartiyaviylik tizimi uchun harakatlar bo`lgan bo`lsada, ba`zi siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar tufayli muvaffaqiyatsizlikga uchradi.

Turkiyada siyosiy partiyalar ilk bor Usmonli davrida 1876-yildagi konstitutsiya (Qonuni asosi) va 1909-yildagi konstitutsiyaga kiritilgan o`zgartirishlar natijasida jamiyat hayotiga kirib kelgan. Bu davrlarda Ittihad va Taraqqiy Firqasi, Mutadil Hurriyatparlar Firqasi, Usmonli Demokratlar Firqasi va Usmonli Sotsialistlar Firqasi kabi ko`plab siyosiy partiyalar tashkil topgan edi.

Bobiali isyoni natijasida yagona partiyaga aylangan Ittihad va Taraqqiy Firqasi 1913-yildan 1918 yilgacha faoliyat olib borgan.

Turkiyada milly ozodlik harakatlari davrida birqancha siyosiy birlashmalar faoliyat olib borgan bo`lsada, ularning markazida Onaduli va Rumiliya Mudofa Huquq Jamiyati turgan. Bu tashkilot Xalq firqasiga aylanib (1923 yil 9- sentyabr) Turkiya jumhuriyatining ilk siyosiy partiyasiga aylandi. Mazkur partiya 1924-yil 10-noyabrdan Turkiya Respublika Xalq Partiyasi (bundan so`ng RXP) nomini oldi. Inqilob rahnamosi Mustafo Kamol Otaturk rahbarligidagi RXP qisqa vaqt ichida davlat va jamiyat hayonini modernizatsiya qilish islohotlarini boshlab yubordi. Biroq bu islohotlardan norozi bo`lgan bir guruh konservativlar partiyadan ajralib chiqib 1924 –yil 17- noyabrda Taraqqiyparvar Jumhuriyat Firqasiga asos solishdi. Ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tishning ilk harakati sifatida baholangan Taraqqiyparvar Jumhuriyat Firqasining tashkil topishi Turkiyada ko`ppartiyaviylikning ilk tajribasi nuqtai nazaridan juda ahamiyatlidir. Partiyaning yetakchisi Kozim Karabakir, o`rinbosari Husayn Rauf Orbay va bosh kotib Ali Fuat Jebasoylar mustaqillik uchun olib borilgan mujodalada qahramonlik ko`rsatgan shaxslar bo`libgina qolmay, Mustafo Kamol Otaturkning eng yaqin do`stlari ham edi. Biroq islohotlar jarayonida ba`zi kelishmovchiliklar kelib chiqdi. Taraqqiyparvar Jumhuriyat Firqasining muxolifligi ikki sohada keskinlashardi: iqtisod va din. Mazkur partiya iqtisoiyotning g`arbona shaklini ya`ni lebiral iqtisodni yoqlardi. RXP esa, kuchli davlatchilik syosatini davom ettirardi. Diniy sohada Taraqqiyparvar Jumhuriyat Firqasi RXPning laitsizm go`yalarini keskin va qat`iy deb hisoblab, o`z dasturida “din va diniy etiqodlarga hurmat” goyalarini targib etardi. Mustafo Kamol Otaturk ham demokratik tuzum o`rnatish maqsadi tufayli, yangi partiyaning tashkil topishidan mamnun bo`lgan. Uning mazkur fikrlari ham, buni tasdiqlaydi: -“Qo`yinglar qarshimizga chiqishsin davlat ishlarini muhokama qilaylik” yoki - “Bizning parlamentda ham ikki partiya bo`lishi kerak,... madaniy mamlakatlar parlamentlariga o`xshashimiz kerak.”¹

¹ Şahin Atacan.Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları.- Eskişehir:Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011,-S.214.

Taraqqiyparvar Cumhuriyat Firqasi Sharqiy Onadoluda sodir bo`lgan Shayx Said isyonida dastak berganlik asosi bilan 1925-yil 3-iyunda taqiqlangan. Shunday qilib ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tish uchun ilk harakat muvvafoqiyatsizlikga uchradi. 1927-yilda RXP yangi dastur qabul qildi. Mazkur dasturga ko`ra, partiyaning birinchi raisi bo`lgan Mustafa Kamol RXPning asosiy mafkurasini e`lon qildi. Jumhuriyatchilik, xalqchilik va dunyoviylik go`yalariga asoslangan mafkura konstitutsiyaga kiritilgan ba`zi o`zgarishlarga sabab bo`lgan. 1928-yil 10-aprelda davlat dinining islom dini ekanligini ifodalagan band konstitutsiyadan chiqarildi.¹ Bu orada yangi bir muxolif partiya tashkil etish tashabbuslari paydo bo`la boshladi. Mustafa Kamol taklifi bilan liberal iqtisod tarafdori bo`lgan Fothibey 1930 yilda Erkin Jumhuriyat Partiyasini tashkil etdi.² Biroq kutilmagan jadallikda rivojlangan Erkin Jumhuriyat Partiyasi muxolifatlikning keskin yo`ldan bordilar. 1930-yilda RXPning tazyiqi natijasida partiya yopildi. 1929-1930-yillardagi iqtisodiy inqiroz tufayli erkin iqtisod tarafdori bo`lgan Erkin Jumhuriyat Partiyasi obro`sizlandi. Ikinchi jahon urushining boshlanishi Turkiyada liberalizmning takror o`rtaga chiqishini kechiktirdi. Erkin Jumhuriyat Firqasining yopilishidan so`ng mamlakatda bir partiyaviylik tizimi sobit edi. RXP "laitsizm", "davlatchilik" va inqilobiy g`oyalar bilan sug`orilgan mafkura soyasida faoliyatini davom ettirar edi.

Ikkinchi jahon urushidan so`ng o`zgargan dunyo muvozanati davom etayotgan avtoritar inqilobiy rejimning keltirib chiqargan ijtimoiy beqarorliklari byurokratik va diktatorlik xususiyatini namoyon etgan boshqaruv tizimini ortiq yashay olmasligini ko`rsatdi.³ Mamlakat rahbari Ismet Inenyu 1945 19-mayda so`zlagan nutqida yangi partiyalar tashkil etish kerakligini e`lon qildi. Birinchi bo`lib 1945 yil iyul oyida tadbirkor Nuri Demerag` rahbarligidagi Milliy Uygonish Partiyasi tashkil etildi.

¹Şahin Atacan.Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları.- Eskişehir:Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011,- S.218.

² Akşin Sina. Kısa Türkiye Tarihi.- İstanbul:Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008,- B.204 .

³ Ömer Faruk Gençkaya.Türkiye'nin çok partili parlamenter sisteme geçiş sürecinde siyasi partilerin ekonomi politikaları .-Ankara: Akademik bakiş dergisi, 2011,- S.45.

Xalq Respublikachi Partiya (XRP) bilan 1945-yiida tashkil etilgan Demokratik Partiya (DP) o'rtasida kurash kuchaydi. DP davlat monopolizmiga qarshi chiqib, «Xususiy tashabbus»ni qo'lladi. 1946-yiigi sayiovlarda XRP terror yo'li bilan g'olib chiqdi va darhol repressiyani boshlab yubordi. Bu narsa mamlakatda keskinlikni avj oldirdi. Mamlakatni 1938-yildan AQSHga moyil I Inenyu boshqarib kelardi. Turkiyada 1945 yilda boshlangan ko`ppartiyaviylik siyosiy tizimiga o`tish jarayoni 1947 yil 12- iyuldagi bayonnoma bilan mustahkam poydevorga ega bo`ldi. 12-iyul bayonnomasi Turkiyaning demokratik mamlakat bo`lish yo`lidagi muhim qadami bo`ldi. Hukumat nihoyat, ko`ppartiyaviylik siyosiy rejimini qabul qildi. Ko`ppartiyaviylik siyosiy tizimiga o`tilishi bilan ikki bosqichli ovoz berishdan iborat bir partiyaviylik saylovlari barham topdi.¹ Ushbu tarixiy jarayonning ikkinchi jahon urushidan keyin jadallashuvi va buning samarasi o`laroq Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining qaror topishi bir qancha tarixiy omillar soyasida amalga oshdi.

1. Urush davrida hukmron partiyaga qarshi norozilik kayfiyati:

Turkiya ikkinchi jahon urushiga amalan kirmagan bo`lsada, urushning har qanday salbiy oqibatlaridan ta`sirlangan. Bu esa hukmron partiyaning obro`sig ta`sir o`tkazmasdan qolmagan. “Urush yillarida sarflangan harbiy xarajatlar mamlakat iqtisodini beqarorlashtirgan. Bu davrda qahatchilik , qimmatchilik va turli suistemolliklar RXP hukumatiga nisbatan noxushlik kayfiyatini uyg`otdi.”² Bundan tashqari, urush va undan keyingi dastlabki yillarda amalga oshirilgan birqancha islohotlar jamiyatning turli qatlam vakillarining noroziligiga sabab bo`lgan. Jumladan, 1940- yilda chiqarilgan “Milliy himoya qonuni” xalq yilkasiga og`ir iqtisodiy yuk bo`lgan bo`lsa, 1942-yilgi “Mavjudiyat solig`i to`g`risidagi qonun” yirik mulkdor va yer egalari bilan RXPning yo`llarini ayirgan. 1944 - yildagi Yer mahsulotlari solig`i dehqonlar bilan hukumat ziddiyatiga sabab bo`lgan. Ayniqsa, 1945 yildagi “Dehqonlarga yer berish to`g`risidagi” qonun

¹Örmeci Ozan. Türkiye'nin Çok Partili Sisteme Geçişi.- Eskişehir:Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011, - S.74.

² Türkiye'nin çok partili parlementer sisteme geçiş sürecinde siyasi partilerin ekonomi politikaları.- İzmir: Bilgi yayinevi, 2011, - S. 25.

savdo vakillari va yer egalari RXP qarshi siyosiy muxolifat tashkil etishlariga sabab bo`lgan.¹

Demokratik harakatning o`shishi hukmron doiralarni tashvishga soldi. Katta boylik orttirgan bankir, yirik savdogar, sanoatchi va yirik yer egalari sarmoyadorlar partiya rahbarlik organiga kirdilar. Demokratik partiya hokimiyatni qo`lga olish maqsadida xalqning noroziligidan foydalandi. U o`z dasturida demokratik erkinliklar ta`minlanishi, ishchilar, sanoatchilar uchun partiyalar hamda kasaba uyushmalari tuzilishini talab qilib safsatabozlik ishlatishga kirishdi. Mamlakatda sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi va hukumat siyosatidan xalq ommasining noroziligi kuchaytirishdan Xalq respublika partiyasining oppozitsion a`zolari o`z maqsadlari yo`lidan foydalanib, partiya dasturi va nizomini o`zgartirishni, Konstitutsiyaga zid qonunlarni bekor qilishni va bir bosqichli saylov o`tkazilishini talab qildilar.²

2. *Ikkinchi jahon urushidan keyingi dunyodagi o`zgarishlar* :Ikkinchi jahon urushidan so`ng dunyodagi siyosiy va mavkuraviy manzara yangicha tus oldi. Dunyoning ikki qutbga bo`linishi va sovuq urush tufayli siyosiy kurashlar avj olishi Turkiyadagi siyosiy o`zgarishlarga ta`sir o`tkazmasdan qolmadi. Boshqa tarafdin, ikkinchi jahon urushi fashizmni fosh etilishi bilan nihoyalinishi, xalqaro miqyosda demokratiyani jozizibalantirdi. Xalqaro siyosatda demokratik boshqaruv tinchlikparvar siyosiy tartibotning voz kechib bo`lmaydigan asosi sifatida baholana boshlandi. Turkiya o`z ichki va tashqi siyosatini ana shu jarayonlarga qarab belgilashga majbur bo`ldi. “Turkiya bunday sharoitda BMTga qo`shilish va g`arb davlatlari bilan, xususan AQSh bilan yaqinlashish uchun siyosiy o`zgarishlarga majbur edi. Bu yaqinlashuv Turkiyani xalqaro siyosatda yolg`izlanishdan qutqaribgina qolmasdan, ayni paytda AQShning iqtisodiy yordamlariga zamin yaratardi.³Turkiyaning Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarining keskinlashuvi ham

¹ Benhür Çağatay. 1945-1946 Yıllarında Türkiye’de Politik Gelişmelere Genel Bakış –Ankara:Aydin, 2008, - S.30.

² Данилов В.И. Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжится –М: Восток, 1998,- С. 153.

³ Kartal Cemile Burcu. Türk Siyasal Hayatında Beyaz İhtilal: 1950 Seçimleri.- Istanbul: Atatürk yayinlari, 2003, - S. 280.

g`arbg bo`lgan yaqinlashuv ehtiyojini kuchaytirgan. “Sovet ittifoqining ikkinchi jahon urushidan so`ng Turkiyadan yer talab qilishi va bug`ozlar ustidan nazorat etish istagi tufayli Turkiya G`arb himoyasiga ehtiyoj sezdi. Demokratik sestema bunday hamkorlikga poydevor yaratardi”¹.

AQSh va Yevropa bilan yaqinlashish siyosati olib borgan Xalq Respublikachilar Partiyasi ijtimoiy siyosiy hayotning demokratizatsiyalari bilan bir qatorda hokimiyatni tashlab ketishni sira ham hayoliga keltirmas edi. Respublikachilar Demokratlarga faoliyatni konsolidatsiya qilishga yo`l qo`ymay 1946-yil iyulda Favqulodda shoshilinch saylovni majlisga o`tkazib o`zlarini ma`glubiyatga uchrashini oldini oldi. Xalq Respublikachi Partiyasiga qarshi norozilik jarayonini boshlab yuborishdi va ularni korrupsiya va saylov natijalarini falsifiyokatsiyalashda ayblashdi. Bu payt AQSh kongresida Turkiyaga harbiy ko`mak berish bo`yicha masala muhokama qilinayotgan payt edi. AQSh XRPni mamlakatda siyosiy erkinlik yo`qligini bildirib tanqid qildi. XRP yetakchilari ikki o`t orasida DP va AQShning tanqidi va DPning talablari orasida qoldi. Umumiy norozilik tufayli Respublikachilar yon berishga majbur bo`ldi. Partiyaning bosh kengashi oppozitsiyalarning talablarini rad qildi va ularni partiya safidan chiqardi. Norozilik belgisi sifatida Xalq-respublika partiyasining ba`zi bir taniqli arboblari o`z xoxishlari bilan partiya saflaridan chiqdilar. J.Bayar, A.Menderes, F.Koprulu va R.Koraltan 1946-yil 7-yanvarda Demokratik partiya (D.P) ni tashkil etdilar. Yakkahokim partiya (XRP) dan to`ygan jamiyat yangi bir partiyaning tashkil etilshini sevinch bilan kutib oladi. Demokratiya va liberal iqtisodiyot tushunchasi va dunyoqarashiga ega bo`lgan DP tez orada yuksaladi. 1946- yil saylovlarida parlamentga kirishga, 1950-yil 14-mayda esa bir o`zi saylovlardan o`tib, hukumat tepasiga kelishga muvaffaq bo`ldi. Shu tarzda Turkiyada yakka partiyalilik davri nihoyasiga yetadi. Ilk bor xalq ovozi bilan Turkiyada xokimiyat o`zgartirildi. Bu hukumat tashqi siyosat sohasida “Trumen doktrinasini”ni e`lon qilgan va Turkiyaga zo`r qiziqishi bilan qaray boshlagan AQSHning madadiga umid bo`g`ladi.

¹Erdo`gan Mustafa Liberal Toplum ve Liberal Siyaset - T`urkiye`de Demokrasiye Ge`cişin Deneyimi (1945-1950).- Ankara: Siyasal Kitapevi, 1992, -S. 156.

Ayni shu vaziyatda AQShning Marshal rejasi va Turumen doktrinasi soyasida Turkiyaga berilgan sarmoya AQSh istaganidek ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishiga turtki bo'lgan. 1948- yil iyulida "Marshall rejasi" doirasida Turkiyaga "iqtisodiy yordam" berilishi to'g'risida AQSH bilan bitim imzolandi. Bu bitim mamlakatning iqtisodiy asoratga tushib qolishiga olib keldi. 1952- yil Turkiya Shimoliy Atlantika Alyansi (NATO) a'zosi bo'lib oldi. Shundan keyin Turkiya Yaqin va O'rta Sharqdagi harbiy blokni NATO ning O'rta Sharqdagi filiali bo'lgan Bag'dod paktini tuzishda faol qatnashdi. Iroq Bag'dod paktidan chiqqandan keyin (1959-yil yanvarda) bu paktning nomi SENTO deb atala boshladi.¹ 27 yillik birpartiyaviylik davriga qarshi yuzaga kelgan salbiy munosabat 1950 yildagi saylovlarda DP(Demokratik partiya)ning osonlik bilan g'alaba qozonishini taminladi. RXP ning sobiq safdoshlari ham Demokratik partiyaning qo'llab qo'vvatlashdi.

3) *Ismet Inenyu omili*

Uzoqni ko'ruvchi siyosatchi va davlat raxbari bo'lgan I.Inenyu urushdan keyin butun dunyoda esa boshlangan ozodlik va demokratiya shamoliga ham, urush keltirgan qiyinchiliklar sabab mamlakatda yuzaga kelgan noroziliklarga ham tomoshabin bo'lib tura olmas edi. Shuning uchun ham u 1945-yil oxirlarida "rejimning liberallashtirishi" lozimligini ta'kidladi va undan so'ng "muxolifat partiyasiga zarurat borligini uqtirdi.

Ko'ppartiyaviylikka o'tish davri Ikkinchi Jaxon urushi oxiri va, asosan, urushdan keyin Yevropada esgan ozodlik va demokratiya shabadasi xokimiyat tepasida uzoq vaqtdan beri turib kelayotgan XRPga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu partiyaning totalitar boshqaruvidan to'ygan, ozodliksevar muxolifat harakati dunyoga keldi. Prezident Inenuning ijobiy munosabati bu muxolif kuchni yanada jasoratlantirdi.² 1950-yilning may oyida Turkiya Buyuk millat majlisi (parlamenti)ga bo'lib o'tgan sayioyda Demokratik partiya g'alaba qozondi. Partiya rahbari J. Boyar mamlakat Prezidenti, partiyaning yirik arbobi A. Menderes Bosh vazir lavozimini egalladi.

¹ Anvar Qosimov. Hozirgi Turkiya - T.: O'zbekiston, 1992,-B. 47.

² Данилов В.И. Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжится – Moskva: Восток, 1998,-С.151.

Uning dasturi iqtisodiyotda davlat sektorni tugatish va erkin tadbirkorlikni qaror toptirishai ko'zda tutardi.¹ Ko'partiyaviylik tizimi mamlakatga demokratiya shamoli bilan birga katta to'liqindagi siyosiy beqarorliklarni ham olib kirdi.

2. 1960-70 yillarda siyosiy o'zgarishlar va uning siyosiy partiyalar faoliyatiga ta'siri

1954- yildan boshlab xalq DP ni qo'llab-quvvatlashni susaytira boshladi. Buning asosiy sababi tashqi bozorlardagi qulay konyunkturaning tugashi va iqtisodiyotdagi buzilishlar edi. Tez sur'atlarda yuksalayotgan inflyatsiya, shahar axolisi, armiya va davlat tizimidagilarning moddiy ahvoliga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1958-yilda Turkiya o'zini bankrot deb e'lon qilib, qarzlarini to'lay olmasligini bildirdi. Boyar-Menderes hukumatidan ko'pchilik norozi bo'ldi. Mamlakatda korrupsiya, talon-toroj avj oldirilgan edi.

Mamlakatda mavjud rejim ustida bahslar kuchaydi. Universitetlarning talablari ko'chalarga namoyishga chiqdi. 1960-yil 20-aprelda Istanbul universitetining talabalari ommaviy jabr-zulmga qarshi norozilik belgisi sifatida miting o'tkazishdi. Ertasi kuni talabalarning ko'p kishilik namoyishi bo'lib o'tdi. Politsiya ularga qarshi o't ochdi. Istanbulgi tinch namoyishning o'qqa tutilishi umumiy qahrg'azab uyg'otdi. Mamlakatning hamma tomonlaridan norozilik arznomalari tusha boshladi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat yanada keskinlashganligidan favqulodda holat e'lon etildi. Shunday bir beqaror vaziyatda Qurolli kuchlar 1960-yil 27- may kuni davlat to'ntarishini boshlab yubordi. Inenyu tarafdori bo'lgan bir nechta general DPni xokimiyatdan tushirishning siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etish, mamlakatni va demokratiyani saqlab qolishning voz kechib bo'lmas asosiy sharti ekanligin anglab, ushbu qarorni qabul qilgan edilar. 1960-yil may oyida harbiy to'ntarish bo'ldi. Hokimiyat to'ntarish o'tkazgan yangi tashkilot — Miiliy birlik qo'mitasi (MBQ) qo'liga o'tdi. Mamlakatning vaqtinchalik konstitusiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra, MBQ oliy qonun chiqaruvchi organ deb e'lon qilindi. Unga J. Gursul raislik qildi va u vaqtinchalik

¹ M.Lafasov, U. Jo'rayev. Jahon tarrxi. –Toshkent:O'zbekiston, 2007, - B. 259.

hukumatni ham boshqardi. J. Boyar, A. Menderes qamoqqa olindi. A. Menderes 1961-yilda qatl etildi. Qurolli kuchlarning turli darajalarida Milliy Birlik Qo'mitasi nomi ostida uyushgan ofitserlar 1960 -yil 27- may kuni oldindan tuzilgan rejaga ko'ra harakat qilib, DP hokimyatini ag'darib tashladi va davlat boshqaruvini o'z qo'liga oldi. Davlat to'ntarish haqida erta tongda e'lon qilingan bayonotda, amalga oshiriladigan tadbirlarning demokratiyani himoya qilish va saqlab qolish, mamlakat ichida beqarorlikni oldini olish uchun ekanligi, uning uchun hech qanday jismoniy shaxs va tashkilotga qarshi emasligi, ma'lum (qisqa) bir vaqtdan keyin umumxalq saylovlari o'tkazilishi, favqulodda vaziyat bekor qilinib, davlat boshqaruvining qaytadan fuqarolarga berilishi batafsil tushuntirildi.¹1961-yilning may oyida mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etilgach, ikkita yangi partiya tuzildi. Ularning biri «Adolat partiyasi», ikkinchisi esa «Yangi Turkiya partiyasi» deb ataldi. Ayni paytda boshqa siyosiy partiyalar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Noyabr oyida o'tkazilgan saylovda hech bir partiya mutlaq ko'pchilik o'rin ololmaganligi uchun koalitsion hukumat tuzishga to'g'ri keldi. 1960 yilda Turkiya juda katta to'lqinga ega bo'lgan siyosiy tebranishlar girdobida qolgan edi. 27-mayda amalga oshirilgan harbiy davlat to'ntarilishi mamlakatning barcha jabhalarda o'z ta'sirini o'tkazdi. 37 nafar qo'yi lavozimdagi zobitlar rejasi asosida amalga oshirilgan ushbu siyosiy harakat Turkiya siyosiy tarixida sezilarli iz qoldirgan. Mamlakatning barcha sohalarida islohotlar amalga oshirildi. Respublika prezidenti va hukumat a'zolari qo'lga olinadi, 235 general va 3500 atrofida zobit istefoga chiqariladi. 520 sudya ishdan bo'shatilib adliya nazorat ostiga olinadi. Mamlakatni 37 zobit va nafaqadagi general Jamol Go'rsal boshchiligidagi Milliy Birlik Qo'mitasi qo'liga o'tadi. 1960 yil 14- oktyabrdan 1961yil 14 sentyabrgacha 592 kishi jzolanadi. Demokratik partiya a'zolaridan 228 kishiga o'lim jazosi talab qilinadi, biroq Adnan Menderis, Fatih Rushtu, Hasan Po'latkanlargagina o'lim jazosi amalga oshirildi. Jalol Bayar va yana 11 kishi umrbod qamoqqa mahkum etildi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Harbiylarni davlat to'ntarilishini amalga oshirishlarining sababi nimada.?

¹ Korkut Baratov. Turkiyede Devletcelik Savas.- Ankara: Aydin, 1982,- S.123.

Hokimiyatni qo`lga olmoqchi bo`lgan generallar tashabbusimi yoki mamlakat taqdiridan xavotirlanishmi? 1960 yil 29- sentyabrda harbiy to`ntarishni keltirib chiqargan islohotlar ijodkori bo`lgan Demokratik partiya yopildi. Otaturk asos solgan Respublika xalq partiyasidan tashqari boshqa barcha partiyalar yopildi. Harbir to`ntarishdan so`ng, yangi konstitutsiya qabul qilingan. Siyosiy hayot isloh etilar ekan, yangi partiyalar va yangi kadrlar rejalashtiriladi.¹ 1961 yilda yangi konstitutsiya qabul qilinib mamlakatning siyosiy isloh etish boshlandi. Mamlakat vaqtinchalik harbiylar qo`lida edi . Davlat Rejalashtirish tashkiloti va Konstitutsiyaviy Sud o`z faoliyatini boshladi. Mamlakatdagi ushbu jarayonlar shubhasiz, siyosiy partiyalar faoliyatga ta`sir o`tkazdi. Aslida harbiy to`ntarishning asosiy sabababi hukmron partiyaning (DP) mamlakat asoschisi Mustafo Kamol Otaturkning siyosiy g`oyalaridan chekingani edi. 1961 yigi konstitutsiya bilan Turkiyada siyosiy partiyalar konstitutsiyaviy kafolatga ega bo`ldi. Konstitutsiyaning 56 va 57- moddailari siyosiy partiyalar faoliyatiga tegishlidir. Mazkur moddalarda fuqarolarning siyosiy partiyalarga birlashish va partiyalarni tashkil etish shaxsiy huquq sifatida kafolatlangan. 1961 yil konstitutsiyasidagi mazkur band ahamiyatga molikdir. “ Siyosiy partiyalar, xoh hukumatda bo`lsin, xoh muxolifatda, demokratiyaning voz kechilmaydigan unsuridir.” Bundan tashqari, siyosiy Partiyalar faoliyatini huquiy asosini yaratish ihtiyoji tufayli 1965 yilda siyosiy partiyalar to`g`risidagi qonun qonun qabul qilindi. Mazkur huquqiy asos davlatning siyosiy partiyalar ustidagi nazoratini tamanladi.² Bundan keyingi siyosiy jarayonlarda Demokratik Partiyaning ishtiroki yo`q edi. Barcha islohotlar Respublika Xalq Partiyasi yetakchiligida amalga oshirildi. Ma`lumki, harbir siyosiy partiyaning tarixiy asosi va kelajagdagi vorisi bo`ladi. Demokratik partiyaning tarixiy asosi Respublika Xalq Partiyasi bo`lgan bo`lsa, uning davomchilari ham birin-ketin vujudga kela boshladi. Ragip Gumushpala tomonidan tashkil etilgan leberal va kanservativ g`oyalarni targ`ib etuvchi Adolat

¹ Yararsoy Dursun. Tamsili Demokrasinin Gelişiminde Siyasal Partiler Kavramı-Istanbul: websitem.gazi, 2009, - S.167.

² Mehmet Kabasakal. Türkiye’de Siyasal Parti Örgütlenmesindeki Kısıtlamalar- Ankara: Tesav Yayını, 1995,- S.220.

Partiyasi(AP) Demokratik Partiyaning vorisi sifatida faoliyat olib bordi. 1961 yildagi saylovlarda 34.8% ovoz bilan Respublika xalq partiyasi bilan birga Turkiya tarixidagi ilk koalitsion hukumatni tashkil etdi. 1964 yilda Gumushpala vafotidan keyin partiya rahbarligi Saadettin Bilgich va undan so`ng Sulaymon Demerelga o`tdi. 1965 yilgi saylovlarda g`alaba qozongan AP Inenyu boshchiligidagi hukumatni o`rnini egalladi. 52.9% ovoz bilan birinchi raqimli partiyaga aylandi. 1969 yildagi saylovlarda partiyaning ovoz olish darajasi tushgan bo`lsada saylov tizimi o`zgargani tufayli partiyaning parlamentdagi deputatlari soni ortdi. 1970 – yilda partiyadagi ba`zi kelishmovchiliklar sababidan, shuningdek deputatlar va senatorlarning ovozi bilan Slaymon Demerelning ikkinchi hukumati ag`darildi. Farrux Bozbayli boshchiligidagi Demokratik Partiya tashkil etildi. Ko`ppartiyaviylik tizimida hokimiyatda ikki partiya Xalq Respublikachilar Partiyasi va Demokratik Partiya vorisi Adolat Partiyasi (1961- yil tuzilgan) mavjud edi. 1961 -yil saylovda XRP g`alaba qozondi va hukumatni tuzdi. Muholifat bu payt NATO , SENTO dagi ishtirokini qo`llab quvvatlar edi. Chunki NATO nafaqat mudofa maqsadida balki g`arb sivilizatsiya prinsiplarini yoyilishida erkin fikrlash demokratik institutlarni kengaytirish va himoya qilish kabi masalalarni o`z ichiga qo`shib qo`ydi. XRP Turkiyaning Yevropa Iqtisodiy Hamjaiyatiga a`zo bo`lish harakatlarini boshlab yubordi. 1961—1965-yillar Turkiyaning kelgusi taraqqiyot yo'li xususida keskin siyosiy kurashlar yillari bo'ldi. Bu davrda 4 marta hukumat almasldi. Vanihoyat, 1965-yildagi parlament saylovida «Adolat partiyasi» g'alaba qozondi. Uning rahbari S. Demirel Bosh vazir Iavozimini egalladi. Bu hukumat davrida harbiy xarajatlarning yanada o'sishi budjet taqchilligini keskin ko'paytirib yubordi. U 1970-yiida 3,5 mlrd lirani tashkil etdi. Davlat qarzi esa 72 mird liraga yetdi.

1965- yil 10 -oktyabrdagi saylovda Adolat partiyasi ga`laba qozondi. Bu partiya bug`doyning narxi ko'tarilmasligini dehqonlarga va`da qildi, diniy qatlamning ko`magi ostida kurt qabilasining etakchiligining qo`llab quvvatlashiga erishilgan edi. 1966- yil martda prezident Gruselning betobligi tufayli uning o`rniga yangi prezident etib AQSH va NATO bilan harbiy hamkorlik tarafdori generalniy shtat boshlig`i Jevded Sunay tayinlandi. 1965- yil oktabr oyida

Sulaymon Demeril boshchiligidagi Adolat partiyasi bir partiyaviylik hukumat bilan xususiy mulkchilikni shakllantirish va g'arb kapitalini jalb qilishga harakat qilindi. AP ning 1965-1971 yillardagi xokimlik davri iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan Turkiyaning eng porloq davrlaridan biri bo'lib tarixga kirdi. Bu davrda respublika iqtisodiyoti taraqqiy etdi, inflyatsiya tushdi. Sanoatlashuv jarayoni tezlashdi. Qishloq xo'jaligiga sarmoyalar ortdi, energetika masalalariga muhim ahamiyat qaratildi. Ancha mustaqil va erkin tashqi siyosat amalga oshirildi.¹ 1960-yillarning oxirlarida butun dunyoda bo'lganidek, Turkiyada ham talabalar harakatlari, ishchi metinglari keng qanot yozdi. Bundan tashqari mamlakat ichki siyosatiga Amerikaning aralashuvlari kuchaydi. Mamlakatning ham iqtisodiy, ham siyosiy sohalarida taranglik vaziyati yuzaga keldi. Bu jarayonlar mamlakat va Otaturk g'oyalarining himoyachisi bo'lgan armiya yana mamlakatning boshqaruv masalasida o'z so'zini ayta boshladi. 1971 yil 12 mart sanasida mamlakat Qurolli kuchlari tomonidan imzolangan ogohlantiruvchi bayonot radiyo orqali e'lon qilindi.² Qurolli Kuchlarning ogohlantirishi bilan 1971 12 martda Sulaymon Demerel boshvazirlikdan ozod qilingan. Mazkur ogohlantirishdan so'ng Sulaymon Demerel o'rniga shoshilinch tarzda sobiq RXP a'zosi Nihat Erim prezident tomonidan boshvazir etib tayinlangan. Qurolli kuchlar ogohlantirishi va bosimidan taraddudlangan AP va RXP tuzilgan hukumat tarkibini tuzishga majbur bo'ldilar. Mavjud hukumatiga Turkya Ishchi partiyasidan tashqari RXP bosh kotibi Ejevet ham qarshi chiqqan va bosh kotiblikdan iste'foga bergan. 26 mart kuni tayyorlanib 2 aprel ishonch ovozi olgan Erim kabenetida AP va RXP a'zolari o'rin olgan edi.³ Bu hukumatning dasturi bir yondan mamlakatda "rohat va ishonch" bo'lishini va'da berar, boshqa tarafdin yer islohoti kabi konstitutsiyaga ko'rsatilgan bir qancha islohotlarning amalga oshirishini peshnihad etardi. 12 mart voqiyalari Turkiyaning ilk tuzilgan partiyasi bo'lgan XRP faoliyatiga ham ta'sir etdi. Ejevet istifosidan

¹ Edward Gibbon. The History of the Decline and Fall of the Roman Empire- London: Allen Lane The Penguin Press, 1994, - P.336.

² Sina Akşin. Ana Çizgileriyle Türkiye'nin Yakın Tarihi.-Ankara:İmaj Yayıncılık, 1996,- S. 67.

³ Ergun Özbudun. The Institutional Decline Of Parties In Turkey.- London:The Johns Hopkins University Press, 2001,- S. 238.

so`ng, partiya yetakchiligi uchun kurash boshlandi. Bir tarafda Ejevet tarafdorlari harakat qilgan bo`lsa, boshqa yondan bir guruh partiya a`zolari Inenyu nomzodini yoqlamoqda edi. 1972 yil may oyida partiyaning navbatdan tashqari qyrultoyida Ejevetga berilgan ishonch ovozidan so`ng, Inenyu istefoga chiqib sobiq davlat rahbari sifatida senator bo`ladi. Inenyu tarafdorlari yangi Respublikchi partiyasini tashkil etishgan va 1967 yilda RXPdan ajralib chiqqan Ishonch partiyasi bilan birlashib Respublikachi ishonch partiyasini tuzishgan. Bu partiya 1980 yildagi harbiy davlat to`ntarishigacha o`z mavjudiyatini saqlagan. 1969- yilgi saylov Adolat partiyasining mamlakat siyosiy hayotida yetakchi mavqeyini ko`rsatdi. Ammo Adolat partiyasi hukumatining ichki siyosatini turk taraqqiyparvar jamoatchiligi qattiq tan tanqid qildi. Adolat partiyasining o`z ichidagi ixtiloflar ham kuchaydi. Oppozitsiyadagi burjua partiyalar ham mamnun emas edi. Shundan foydalangan parlament oppozitsiyasi byudjetning qabul etilishiga yo`l qo`ymadi, shuningdek Demirel hukumatini iste`foga chiqishga majbur etdi. 1970 -yilning boshlarida yana Demirel yangi hukumat tuzdi. Avvalgi hukumatning dasturidan deyarli mutlaqo farq, etilmaydigan dastur e`lon qilindi. Turkiya Buyuk Millat majlisidagi o`ng burjua-zamindorlar blokidan madad olib turgan Adolat partiyasining hukumati demokratik harakatni, mehnatkashlar ommasining, ilg`or ziyolilar va talaba yoshlarning o`z ijtimoiy hamda fuqaroliklik huquqlari amalga oshirilishi yo`lidagi kurashini bostirish siyosatini o`tkazadi . U majlisga kasaba uyushmalari va ish tashlash haqidagi qonunlarni o`zgartish to`g`risida qonun loyihasi taqdim etdi, bu loyiha Turkiya proletariatining ko`rashini cheklab qo`yar edi. Turkiya inqilobiy kasaba uyushmalari konfederatsiyasi shu o`zgartishlarning qabul etilishiga qarshi chiqdi. Shu federatsiyaning da`vati bilan ishchilar ish tashlab namoyishlarga chiqq boshladilar, 1970 -yil iyunidagi sinfiy janglarning dastlabki kunlarida namoyishchilardan 300 kishi o`ldi va jaroxatlandi. Shu tarzda 60- yillardagi erkinlikka intilish, xurriyatsevarlik muxiti 1971- yil 12- martdagi davlat to`ntarishi bilan o`z nixoyasiga yetdi. Bosh Qo`mondon va turk qurolli kuchlar qo`mondonlarining hamkorlikda amalga oshirgan davlat to`ntarishi anarxiya va terrorismni oldini olish, rejimni barqarorlashtirish, islohatlarni amalga oshirish, Otaturk

nuqtai nazariga mos ravishda, har qanday siyosiy partiyaviylikdan ustun bo'lgan bir hukumatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligini, aks holda vaziyatni armiyaning o'z qo'liga tamomila olishini e'lon qildi. Shunday sharoitda mavjud qonuniy Hukumat Bosh vaziri S. Demirel o'sha kuniyoq Respublika Prezidenti Jevdet Sunayga iste'fo arizasini topshirdi. Bu paytda hukumat tuzilgan bo'lsada siyosiy beqarorlik davom etardi. Erim boshchiligidagi hukumat 11nafar vazirning hukumatdan ajralgani tufayli istefoga chiqqan bo'lsada unga ikkinchi bor hukumat tuzish vakolati berildi. Biroq bu hukumat atigi besh oygacha ham bormadi. Natijada boshvazir etib Respublikachi ishonch partiyasi a'zosi Feret Melen tayinlandi. Bu hukumat davridagi eng muhim voqiya prezidentlik saylovi bo'ldi. 1973 yilgi saylovlar AP va RXP o'rtasidagi kurashlar bilan kechdi.¹ 1973 yildagi saylovlarda 1950 yildan so'ng birinchi marta Respublika Xalq Partiyasi eng ko'p ovoz olgan bo'lsa, AP 29.76% ovoz oldi. Demokratik partiya va Milliy Salomat Partiyasidan iborat koalitsion hukumat tuzildi. Sakiz oyga yaqin faoliyat ko'rsatgan RXP-MSP koalitsion hukumati parlamentga taqdim etgan amnetsiya qonun loyihasining deputatlari muhokamasi paytida MSPning ba'zi deputatlari o'ng patriya bilan hamkorlik qilgani uchun ba'zi muammolarga duch kelgan. Biroq qonunning rad etilishi tufayli hukumat saqlanib qolindi. Kipr masalasi tufayli hukumat katta obro' qozondi.² Siyosiy beqarorliklar tufayli AP, MSP va RXP birlagalikda Milliy jabha hukumatini tuzishdi. 1977-yildagi saylovlarda yana hech qaysi partiya yetarli ovoz ololmagandan so'ng, 2- milliy jabha hukumati tuzildi. Ammo yilning oxirida bu hukumat ham ag'darildi. Ikkinchi Milliy Jabha hukumati uzoq yashamadi. Mamlakatda siyosiy inqiroz davom etayotgan, tartibsizlik, beqarorlik, repressiya, iqtisodning orqaga ketishi, hayot kechirishning qimmatlashuvi kabi og'ir vaziyat ichida qolgan Turkiya yana bir harbiy davlat to'ntarilishi yoqasida edi. 1973- yilda TBMM da o'tkazilgan Prezident saylovida 12 - mart nomzodi bo'lgan Faruk Gyurler mag'lubiyatga uchradi. AP va XRP dan hamkorlikda chiqarilgan nomzod Faxri Koruturk parlament tomonidan Prezident etib

¹ Tefvik Çavdar. Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995- Ankara: İmge Kitabevi, 1996,- S.221.

² Usha manba

saylandi.¹ Bu vaqt mobaynida XRPda 1969- yildan boshlab ajabtovur o'zgarishlar yuz berdi. 12- Mart rejimiga qarshi olib borilgan siyosatda XRP Bosh Rais I Inenyu bilan kelishmay qolgan partiya Bosh kotibi Byulent Ejevit va uning o'rtoqlari Markaziy Ijro Kengashi a'zolidan iste'fo berdi. Bu guruhda 12 -mart to'ntarishidan keyingi davr ichida partiya ichida jiddiy kurashni davom ettirdi. XRP ning 1972- yildagi qurultoyida B.Ejevit Inenyuga qarshi partiya boshqaruviga o'z nomzodlarini qo'ydi. Edjevit yutib chiqdi va Inenyu partiya raisligidan, deputatlikdan va XRPga a'zolikdan iste'fo berdi. Zudlik bilan to'plangan Favqulodda Qurultoyda B.Ejevit XRP Raisi etib saylandi. Shu kundan boshlab XRP uchun yangi davr boshlandi. 1973- yil saylovlari huquqiy nuqtai nazardan 12- mart rejimiga barham berdi, lekin hech bir partiya bu saylovlarda ko'pchilik ovozga ega bo'la olmadi. 1961- yilda bo'lgani kabi, hukumat tuzishda yana «koalitsiyalar davri» boshlandi. Hukumatlar tez-tez qurilib, shu yo'sinda tarqatib yuborildi, umidsizliklar, ishonchsizliklar va deputatlarning bir partiyadan boshqasiga o'tib ketish hodisalari odatiy holga aylandi. 1973- yildagi saylovlarda eng ko'p ovozni XRP oldi. Partiya rahbari bo'lgan B.Ejevit uzoq davom etgan muzokaralardan keyin diniy nuqtai nazarda bo'lgan va islomiy oqimlarning partiyasi sanalgan Milliy Salomat partiyasi bilan birga koalision hukumat tuzadi. Bunday ajabtovur ittifoq ba'zi ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, dunyo miqyosida boshlangan neft krizisi Turkiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. 1974- yilning iyunida Kiprda Makarios hukumatiga qarshi amalga oshirilgan to'ntarish Turkiyani London Shartnomasi va 1960- yildagi Kipr Konstitutsiyasidan yuzaga kelgan garantiyorlik huquqarini qo'llagan holda orolga harbiy harakatlarni olib borishga majbur etayotgan edi. Kipr muammosi juda kelishmay qolgan partiya Bosh kotibi Byulent Ejevit va uning o'rtoqlari Markaziy Ijro Kengashi a'zolidan iste'fo berdi. Bu guruhda 12 - Mart to'ntarishidan keyingi davr ichida partiya ichida jiddiy kurashni davom ettirdi. XRP ning 1972- yildagi qurultoyida B.Ejevit guruhdasi Inenyu guruhiga qarshi partiya boshqaruviga o'z nomzodlarini qo'ydi. Edjevitning guruhi ro'yxati yutib chiqdi va Inenyu partiya raisligidan, deputatlikdan va XRPga a'zolikdan iste'fo berdi. Zudlik bilan to'plangan Favqulodda Qurultoyda B.Ejevit XRP Raisi etib saylandi. Shu kundan

¹ Keyman Fuat E. The Principle of Fairness in Turkey.- Ankara:Turkish Policy Quarterly, 2004,- S.83-93.

boshlab XRP uchun yangi davr boshlandi.

1960-1980 yillarda Turkiya ichki siyosatida o`zgarishlar bo`ldi. Mamlakat ichida demokratik konstitutsiya bazasida o`ziga xos portlash bo`lib, oqibatda chap harakat vakillari ajralib chiqdi. Erkin qonuniy faoliyatni qo`lga kiritgan turk o`ng qanot vakillari dunyo kommunistik harakati kichik burjua sotsialistik harakati tajribasini Turkiyada qo`llay boshladi. 1961- yilda Turkiya ishchilar partiyasi tuzulib 1960- yillarda o`ng harakatning asosiy kuchlaridan biriga aylandi. TIP (Turkiya ishchi partiyasi) kapital davlatlarning rivojlanish modelidan nusxa olishdan voz kechib nokapitalistik yo`lidan borish kerakligini ta`kidlagan. Nihoyat siyosiy liberalizatsiya tufayli terroristlar va anorxistlarning yoshlar orasida rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy ekstrimizim 1960- yillar oxirida terroristlarning qurolli chiqishlari ommaviy tus oldi. Hokimiyatda turgan elita demokratik kontitutsiyaga juda keng yo`l ochilishi tufayli turk jamiyatida siyosiy boshqaruv tashkilotchiligida kamchiliklar kuzatilgani uchun qonuniy bazaga o`zgartishlar kiritilishi siyosiy ekstrimizim mavjud rejimga tahdid qilayotganini ta`kidladi.¹ Biroq 1965-yilda tuzilgan Sulaymon Demiril boshchiligidagi AP davrida mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilishga ojizlik qila boshladi. Boshqaruvchi partiya o`z o`rnini qiyinchilik bilan ushlab turardi. Ichki tomondan partiya susayib tashqi tomondan muholifatchi sotsial demokratlar bosimi ostida qoldi. Vaziyatni umumiy qilib olsak, 1960-70 yillarda mamlakat tashqi va ichki vaziyatlar ikkinchi tizimli inqirozni keltirib chiqargan desak adashmagan bo`lamiz. Siyosiy tizimda chuqur inqiroz kelib chiqishi tufayli ofitserlar korpusida kichik burjua sotsiolizmi g`oyalari tarafdori bo`lgan fuqarolik siyosiy arboblari bilan aloqa o`rnatgan yashirin guruhlar paydo bo`la boshladi. Ularning maqsadi davlat manfaati yuzasidan g`arblashgan siyosiy tizimni yo`q qilish va harbiy rejimni o`rnatishni muhim deb hisoblashadi. Demokratiyaning havaskori sifatida armiya boshqaruvi o`rtaga chiqdi va 1971- yil 12- martda “yumshoq” harbiy davlat to`ntarilishini uyushtirishdi. Davlat to`ntarilishdan maqsad turk demokratiyasi va qonunchilik bazasiga o`zgartirishlar kiritib, xavfli ofitserlarni izvalyatsiya qilish, Sulaymon

¹ Киреев Н.Г. История этатизма в Турции. –Москва: Наука, 1991,-С.56.

Demirel 1961- yildagi konstitutsiyaga binoan bir palatali kabinet bilan huquq va erkinlikni cheklashga harat qilgani uchun istefoga chiqarildi. Ijro etuvchi hokimiyat huquqlari kengaytirildi, uning ustidan bo'lgan sud organlari nazorati bekor qilindi. Institutlar, Universitetlar o'zini o'zi boshqarishi cheklandi. OAV ustidan nazorat oshirildi. Ommaviy tartibsizliklarga qarshi qattiq jazo choralari kiritildi va davlat xafsizligi yuzasidan sudlarga davlat xafsizligi va Respublikaga qaratilgan degan tushuncha bilan me'zon belgilanadigan bo'ldi. 1973- yildagi parlament saylovidan keyin mamlakatga normal demokratik tartibot yana qaytib keldi. Biroq 70- yillardagi siyosiy hayot oldingi o'n yillikdagi vaziyatning samarasini takrorladi. Siyosiy kurashdagi asosiy da'vogarlar 1976-yildagi sotsial demokratlar deb atashni boshlagan XRP va AP qolgan edi. Lekin bu davrda yana ikki partiya o'zini siyosiy maydonida millatchi harakatlar partiyasi va milliy qutqarish patriyasi o'zlarini ko'rsatgan edi. MXP 60-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, prinsipial tartiboti manbai - turk millatchiligi va islomizm asosiy manba sifatida olingan. Milliy qutqarish partiyasi 1972-yilda tuzilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'naviy va material tarafdin xalqni ko'tarish, tarixiy qadriyatlarga tayanib tanqidchilikdan vos kechishni nazarda tutgan edi. Partiya dasturida vijdon erkinligini cheklashni bekor qilish, otleizmga olib boruvchi ateizmdan din bilan davlat vos kechishni talab qilar edi. Milliy qutqarish partiyasi lideri professor, injiner Najmiddin Erbakan va bir nech partiya yetakchilari XRP va AP tanqid qilishib, ularni Turkiyani g'arbning ko'rinmas qurolga aylantirganlikda va musulmon davlat bilan aloqalarni susaytirishda ayblashdi. Bu ikki partialar 70-yillarda kuchli saylovchilar tarafdorlariga ega bo'la boshlashdi. Shunday qilib, saylovda to'rt alternative elektoratga ega bo'lgan elektorat hosil bo'ldi. Natijada bironta ham bir patriyali hukumat tuzilmadi. Oqibatda XRP va AP siyosiy kombinatsiyasining xilma- xilliligini oshirishga va xalq harakat partiya va xalq qutqarish partiyasi bilan koolitsion hukumat tuzishga majbur bo'ldi. 1970- yillarda siyosiy hokimiyatga kelgan XRP Edjevit boshchiligidagi hukumat 1974 -yil yanvar oyidan hukumatni boshqara boshlagan. 14 oygina hokimiyat tepasida turgan bu partiya unchalik ko'p ishlarni qilib ulgurmagan bo'lsa ham tashqi

siyosatda millatchilik tezislarini tasdiqladi. XRP lideri siyosiy ahamiyatda chap markazchilar pozitsiyasini egallab, iqtisodiy sohalarda yangi o'zgartirishlar kiritishga harakat qildi. Tashqi siyosatda AP bilan birgalikda ko'p hollarda birdamlik va hamkorlik olib bordi.¹ G'arb davlatlarining Turkiyaga munosabatlari, AQSh tomonidan e'lon etilgan iqtisodiy embargo, Kipr harakati uchun sarf-xarajatlar mamlakatda katta muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kipr voqeyalaridan keyingi olib borilgan tashki siyosatdagi koalisiya ichidagi kelishmovchiliklar oqibatida XRP-MSP koalision hukumati buzildi. Turkiya Prezidenti Koruturk kontingent senatori bo'lgan Sadi Irmoqqa yangi hukumat tuzish vazifasini topshirdi, lekin uning tuzgan hukumati parlamentda ishonch ovozi ola olmadi. Bu orada 1971- yilda AP dan o'zi chiqib ketgan va chiqarib yuborilgan kishilar tomonidan tashkil etilgan DPning faoliyati barqarorlashdi. O'z deputatlari sonini orttirgan AP, MSP, MXP va JIP bilan hamkorlik qilib ko'pchilik ovozga ega bo'ldi. Yangi Hukumat qurish vazifasi S.Demirelga topshirildi. 1977- yildagi saylovlargacha faoliyat ko'rsatishi kerak bo'lgan va Millatchi Jabxa (MJ) nomini olgan hukumat qurildi. MJ davri 1977 -yildagi saylovlardan keyin ham o'z faoliyatini davom ettirdi. Bu saylovlarda ham hech bir partiya ko'pchilik ovozga ega bo'la olmagan S.Demirel boshchiligida ikkinchi MJ xukumati tuzildi. 1978- yil yanvargacha mamlakat tepasida turgan bu hukumat ham iqtisodiy qiyinchiliklar, tashqi aloqalarda muammolar va kuchayib borayotgan terrorizm oldida chorasiz ahvolga tushib qoldi. Mamlakat valyuta taqchilligini boshida kechira boshladi, importning iloji qolmadi. Xukumat esa qisqa muddatli kreditlar va yuksak foizli kreditlar berish yo'li bilan bu muammoni hal etshpga jon-jaxdi bilan harakat qila boshladi. Turkiyadagi bu inqiroz holati 1977- yil dekabr oyida AP dan 11 deputatning iste'foga chiqishi bilan yanada chigallashdi. S.Demirel boshchiligidagi ikkinchi hukumati ag'darildi. XRP lideri bo'lgan B.Ejevit va APdan ajralib chiqqan 11 deputat DP va JIP deputatlarining qo'llab-quvvatlashlari bilan yangi hukumat tuzdilar. Bu davrda iqtisodiy muammolar tamoman og'irlashdi. Asosiy oziq-ovqat maxsulotlari, benzin va ballonli gaz taqchil bo'ldi. Mamlakatda navbatda turish, qora bozor avjga chiqdi. 1979- yilning oxirlarida

¹ www.sredaziya.org. Экономический форум Давосе.

bo'lgan Jumxuriyat Senatining yangilash saylovlarida XRP og'ir mag'lubiyatga uchrab, Bosh vazir B.Ejevit vazifasidan uzoqlashdi. Bu safar S.Demirel MSP va MXP ning tashqaridan ko'rsatgan qo'llab-quvvatlashi natijasida 1979- yil 25- noyabrda AP ozchilik hukumatini tuzdiyu 1979- yil dekabrda Qurolli Kuchlar Bosh Qo'mondoni va harbiy kuch qo'mondonlari Prezident Koruturkka bir ogohlantirish maktubi yubordilar, lekin hukumat va muxolif partiyalar ogohlantirish maktubini e'tiborga olmasliklarini bayon etdi. Demirel hukumatining iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida 1980- yanvar oyida qabul qilgan qarorlari qisqa muddatda ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, hali terrorism davom etardi. Bir qancha viloyatlarda komendantlik soati e'lon qilishgan edi. Ikkinchi tomondan, 1980- yil muddati tugagan Prezident Koruturkning o'rniga yangi Prezident saylovi o'tkazilishi qiyinlashib ketgan edi.

3. 1980 –2000-yillrda Turkiya siyosiy tarixida muhim rol o`ynagan siyosiy partiyalar

1980-yilda esa hatto prezident saylashga erishilmadi ham. Oqibatda yana davlat to'ntarishi o'tkazildi. Barcha siyosiy partiyalar tarqatilgan, deb e'lon qilindi. Ularning rahbarlariga 10 yil davomida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish man etildi. Ommaviy axborot vositalari uchun qattiq senzura o'rnatildi. Biroq Yevropa Ittifoqining aralashuvi bilan harbiylar yon berishga majbur bo'ldilar. Qurolli kuchlarning 1980 -yil 12- sentabr erta tongda Turkiyada Harbiy to'ntarish amalga oshirildi. Xunta¹ respublikada davlat boshqaruvini to'la qo'lga oldi. Bosh qo'mondon armiya generali Kenan Evren va qurolli kuch qo'mondonlaridan tashkil topgan Milliy Xavfsizlik Kengashi TBMM (respublika parlamenti) va hukumatni qo'lga oldi va bekor qildi. Butun mamlakatda komendantlik soati e'lon qilindi. AP, XRP, MSP va MXP partiyalarining Bosh Raislari qamoqqa olindi. To'ntarishdan keyin qonun chiqaruv, ijro vakolatlarini o'ziga olgan Milliy Xavfsizlik Kengashi o'z raisi Kenan Evrenn Davlat boshlig'i etib tayinladi. Admiral Byulent Ulusu boshchigida Yangi Hukumat tuzilib, ag'darilgan AP hukumatida Maslaxatchi-Rais o'rinbosari bo'lib ishlagan, 1980 -yil 24-yanvar Iqtisodiy qarorining muallifi bo'lgan Turgut O'zal Yangi to'ntarish hukumati

¹ Xunta (ispancha)-xarbiylarning uyushgan holda davlatni idora qilishi.

Bosh vazirining 1-o'rinbosari etib tayinlandi. Bu davrda so'ngi AP hukumati boshlab bergan iqtisodiy barqarorlik siyosati amalga oshirildi. Tashqi siyosatda bo'lgan eng muhim o'zgarishlar, NATO Bosh Qo'mondonining nomi bilan yuritilgan "Rodgers rejasi"ning MXK rahbariyati tomonidan qabul qilinishi va mamlakatda ko'p yillardan beri yuritib kelingan siyosatga zid o'laroq Gretsiyaning NATO ga qaytishiga ruxsat berilishi edi.

Yangi Konstitutsiya ishlab chiqish uchun 1981- yil iyun oyida MXK va Maslahat majlisidan iborat yangi Ta'sis Majlisining tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Maslahat majlisi a'zolari nomi e'lon qilingan kun ilgariroq faoliyati taqiqlab qo'yilgan barcha siyosiy partiyalar MXK tomonidan yopib qo'yildi va ularning mol - mulklari musodara qilindi. Konstitutsiya komissiyasi tomonidan tayyorlangan yangi konstitutsiya 1982- yil 7 noyabr kuni xalq muhokamasiga taqdim etildi va 91,2 % "Xa" ovozi olib, qabul qilindi. Turkiya Respublikasining Yangi Konstitutsiyasiga muvofiq Kenan Evren "Prezident" maqomini oldi. 1983- yil 24- aprel kuni "Siyosiy partiyalar haqida"gi qonun kuchga kirdi va yangi siyosiy partiyalarning tuzilishi uchun faoliyatlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshladi. Markaz o'ng partiyalar siyosiy oqimida iste'fodagi general Turg'ut Sunal boshchiligida, "12- Sentabr ruxi va falsafasining davomi" deya tavsif berilgan MDP -Millatchi Demokratik partiya tashkil etildi. MXK tomonidan unchalik xush qarshi olinmagan ikkinchi partiya tuzish tashabbusini ham 1982- yilda Ulus Hukumatidan ajralib chiqqan Turg'ut O'zal boshladi. 24- yanvar qarori bilan boshlangan liberallashuv va iqtisodiy barqarorlik dasturining davom ettirilishi uchun hokimiyatni talab etgan ANAP - Ona Vatan partiyasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan uchinchi partiya, markaz - so'l partiya bo'lishi kerak bo'lgan XP -Xalqchi partiyasi edi. Bo'lar bilan birga AP ning davomi deb atalgan TYP -To'g'ri yo'l partiyasi va I.Inenyuning o'g'li Erdal Inenyu raisligida SDP - Sotsial Demokratik partiyasi tashkil etildi. MXK yangi tuzilgan siyosiy partiyalarning ta'sischilari ro'yxatini nazorat ostiga oldi va ulardan ko'p qismiga veto berdi. Bunda eng ko'p veto SODER va DYP ro'yhatlariga tog'ri keldi. Bu ikki partiya kuzda tutilgan muddat ichida ta'sischilar sonini belgilangan me'yorga yetkaza olmagani uchun umumxalq saylovlarida

ishtirok huquqini ola olmadi. 1983- yil 6 -noyabr saylovlarida faqatgina ANAP , MDP va XP ishtirok etdi va 45,1 % ovoz olgan ANAP bir o'zi hukumat tepasiga keldi. 1983- yil 24- noyabrda to'plangan TBMMda Raislik devoni tashkil qilinishi munosabati bilan MXK ning vakolati nixoyasiga yetdi. MXKning to'rtta a'zosi "Prezident Kengashi a'zosi" sifatida faoliyat boshladi. 1983- yil 31- dekabrda birinchi ANAP hukumati tuzilib, uning Bosh vaziri Turg'ut O'zal bo'ldi. Turg'ut O'zal boshchiligidagi ANAP 1983- yilda bir o'zi hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa, 1987- yil saylovlari natijasiga ko'ra ham xokimiyat tepasida qolishga muvaffaq bo'ldi. O'zal davrining o'ziga xosligi ketma-ket amalga oshirilgan jasur va keskin islohatlar bilan iqtisodiyotning o'z yo'nalishi va shaklini o'zgartirishida namoyon bo'ldi. O'zal "Ulkan transformatsiya " deya nomlagan liberal tadbirlar bilan Turk pulining qiymatini oshirish, belini baquvvatlash qonuni va Kambio rejimi tubdan o'zgartiriddi. Eksport va importga keng yo'l ochib berildi, erkin konvertatsiya tizimiga o'tildi. Ilgarigi yopiq iqtisodiyot va tizginlangan import o'rmini eksportga ustuvorlik beruvchi ochiq iqtisodiy siyosat egalladi. Ishlab chikarish eksportga yo'naltirildi. Davlat daromadlarini oshirish uchun qo'shimcha qiymat solig'i (NDS - KVD) kuchga kiritildi. Xususiylashtirish idoralari tashkil etildi. Erkin savdo mintaqalari tuzildi. Shu kabi yo'llar bilan iqtisodiy yuksalish jadallashtirildi, xronik xolatga kelib qolgan valyuta boshlig'i muammosi hal etildi.

Tashqi siyosatdagi eng muhim o'zgarish esa, Turkiyaning Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlaridagi siljishlar edi. Turkiya bilan munosabatlarni to'xtatib qo'ygan Yevropa Kengashining Maslaxat Majlisi 1984- yil may oyida turk parlamentlarining bu Kengashga ishtirok etishini qabul etdi. Ikkinchi tomondan yillardir davom etayotgan Eron-Iroq urushiga nisbatan betaraf siyosat yuritgan Turkiya bu ikkala o'lkaning iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata oldi. Gretsiyaning Natoga qaytishiga ruhsat berilgandan keyin jonlana boshlagan AQSh munosabatlari yanada yaxshilandi. Bu davrda Turkiya Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan o'rnatilgan yaxshi savdo munosabatlari bois eksport va turizmdan katta foyda ko'ra boshladi. Birinchi O'zal hukumati davrida ichki siyosatda ham muhim o'zgarishlar ro'y berdi. XP va SODEP partiyalari SXP -

Sotsial-demokrat Xalqchi Partiyasi nomi ostida birlashdi. XRPning siyosiy faoliyati taqiqlangan Raisi Byulent Ejevit guruxi ham DSP - Demokratik so'l partiyasini tuzdi. 1986- yil 6- sentyabrdagi referendum bilan siyosiy taqiqlar bekor qilindi va B.Ejevit DSPda S.Demirel DYP da, A.Turkesh MMPda, N.Erbakan esa RPda rais etib tayinlandilar. 1987- yilda bo'lgan navbatdan tashqari saylovlarda ANAP 36% ovoz olib, yana yakka o'zi hokimiyat tepasiga keldi. Bu saylovlarda SXP - 24, 75 %, DYP esa 19,15 % ovoz oldi. Qolgan partiyalar 10% li ovoz me'yori(bar'er) dan osha olmaganligi uchun TBMMga kira olmadi. Prezident Kenan Evrenning prezidentlik muddati tugashi munosabati bilan Turg'ut O'zal 1989- yil 9- noyabrda Prezident etib saylandi. Yildirim Akbulut Bosh vazir etib tayinlandi. Akbulut shu davrdan boshlab ANAP partiyasiga ham rahbar etib saylandi.

Ko'rfaz krizisi. Prezident Turg'ut O'zal, Iroqning 1990- yil avgust oyida Quvvaytni ishg'ol qilishi bilan boshlangan Ko'rfaz krizisi mobaynida shaxsiy diplomatik qobiliyati bilan Turkiyaning xalqaro miqyosda oldingi planga chiqishiga va ittifoqchilar oldida faol o'rin egallashini ta'minladi. BMT Xavfsizlik kengashining Iroqqa iqtisodiy embargo e'lon qilishi haqidagi qarorini birinchi bo'lib tadbiiq etgan mamlakatlardan biri Turkiya bo'ldi. Iroq neftini Yumurtalik viloyatiga olib boruvchi quvurlar bekitildi. 1990- yildagi ko'rfaz krizisi mobaynida Turkiyada joylashgan AQSh harbiy bazalarining ittifoqchilarning havo operatsiyalarida foydalanishlariga ruxsat berildi.¹ 1980-yil 12 sentyabrdagi davlat to'ntarilishidan so'ng, siyosiy partiyalar faoliyati to'xtatildi va ortidan 1981 yil 16 oktyabrda barcha partiyalar yopib qo'yildi. RXP ham, tarixga aylandi. 1983 yilda demokratik hayotga qaytilgandan so'ng, RXPning merosxo'rlari sifatida Xalk partiyasi(XP) va Sotsial demokratik partiyasi(SDP) tashkil topdi. Bu ikki partiya birlashib 1985 yilda Sotsial demokratik xalq partiyasini tashkil etishdi. RXPning oxirgi rahbari B.Ecevit mazkur jarayonlardan chetda qoldi va yaqin maslakdoshlari tomonidan tashkil etilgan Demokratik so'l partiyasi (DSP)ni

¹ Chris Patten .Turkey — The EU's Gate to the World?.-London: World, 2004, - P.21.

qo'llab quvvatladi. 1987 yilda o'nyillik siyosiy taqibning bekor etilishi bilan ushbu partiya rahbari bo'ldi. Demokratik so'l partiyasi (DSP)ning ichida ham kurash boshlandi. B.Ecevit rahbarligidagi DSP o'z oldiga millatchilik so'l mafkurasini qo'ydi. Ilk marotaba 1991 yilgi saylovlarda 7 nafar deputat bilan o'rin egalladi. 1995 yilgi saylovlarda 14.6% ovoz bilan kuchli to'rtlikdan o'rin egalladi. 1999 yilga asosiy saylovlarda hayratlanarli natija bilan (22.2% ovoz bilan) eng buyuk partiyaga aylandi va hukumatda eng ko'p o'rin egalladi. Bosh vazir etib Ejevit tayinlandi. DSP Milliyatchi harakat partiyasi bilan mafkurviy yaqinligi tufayli hukumatda samarali faoliyat olib bordi. Biroq, mamlakatdagi iqtisodiy taranglik va inson huquqlari masalasidagi bahslar 2002 yilgi saylovlarda DSPning muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'ldi. Partiya parchalandi. Yarim deputatlar Yangi Turkiya partiyasi tuzib alohida faoliyat olib bordi. Mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. Natijada qator yangi partiyalar («Vatan» partiyasi, «To'g'ri yo'l» partiyasi) tuzildi. «Vatan» partiyasini T. O'zal, «To'g'ri yo'l» partiyasini esa S. Demirel boshqardi. 1983-yilda o'tkazilgan parlament saylovida «Vatan» partiyasi g'alaba qozondi va T. O'zal Bosh vazir lavozimini egalladi. 1989-yilda esa Turkiya Prezidenti lavozimiga saylandi. T. O'zal davrida mamlakatda chuqur iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Chunonchi, 1986-yildaxususiy lashtirish to'g'ri- sida qonun qabul qilindi. 1988-yildan davlat mulkini sotish boshlandi. Biroq bundan ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Chunki davlat mulki narxi qimmat bo'lgani uchun, 1991 -yil oxirigacha uning atigi 5 foizi xususiylashtirildi. 1991-yilgi parlament saylovlarida «To'g'ri yo'l» partiyasi g'alaba qozondi. Uning rahbari S. Demirel hukumat tuzdi. 1993-yilda T. O'zal vafot etgach, S. Demirel mamlakat prezidentligiga saylandi.¹ 1993 yilda oldingi siyosiy partiyalarning yangidan ochilishiga ruxsat berilgandan so'ng, RXP yangidan tashkil topdi.

¹ M.Lafasov, U. Jo'rayev. Jahon tarrxi.-Toshkent: O'zbekiston, 2007, - B.259.

1-bob bo'yicha xulosa

Xulosa sifatida shuni ayta olamiz: Turkiyada g'arblashuv jarayonining samarasi o'laroq ijtimoiy-siyosiy hayotga kirib kelgan siyosiy partiyalar, Usmoniylar davrida parlament tashqarisida faoliyat olib borgan bo'lsa, Jumhuriyat davrida partiyalarning ko'pchiligi buyuk partiyalar tarkibidan ma'lum sabablarga ko'ra ajralib chiqib ko'ppartiyaviylik tizimiga zamin hozirlay boshlaganar. Ikkinchi jahon urushigacha mamlakatda birpartiyaviylik tizimi barqaror bo'lgan. Mustafa Kamol Otaturkning inqilobiy g'oyalari zamirida qurilgan Jumhuriyatda Jumhuriyat Xalq Partiyasi mamlakatning yagona hukmron partiyasi edi. To'g'ri, bu davrda yangi partiya tuzish uchun harakatlar bo'ldi, biroq mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bardavomiyligi va mamlakat barqarorligini o'ylab Otaturk bu partiyalarni taqiqlab qo'ygan. Bundan tashqari, Turkiya Respublikasi bevosita Sovet Ittifoqining yordami bilan tashkil topgan. Shuning uchun, boshqaruv xususiyatlari mamlakatning tashqi siyosatiga bog'liqlikda rivojlangan. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa, dunyodagi siyosiy manzara o'zgarishi va ikkinchi jahon urushi keltirib chiqargan omillar, shuningdek Ismet Inenyuning tashbbusi soyasida Turkiyada ko'ppartiyaviylik tizimi qaror topdi. Bugungi kunda Turkiyada 68ga yaqin siyosiy partiyalar faoliyat olib bormoqda. Ko'ppartiyaviylik tizimi Turkiyaning demokratik taraqqiyotga bergan munosib javobi bo'lishi bilan birga malakatdagi siyosiy beqarorliklarga ham sabab bo'lgan. Oltimishinchi, yetmishinchi, va saksoninchi yillaragi harbiy mudoxalar fikrimizning isbotidir. Harbiylarning o'zlarini Otaturk g'oyalarining himoyachilari deb hisoblab ket-maket uch marta davlat to'ntarishini amalga oshirishlari bir qancha siyosiy partiyalarining yopilishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda Turkiyada siyosiy partiyalar ko'p bo'lishiga qaramasdan siyosiy dasturlari rasmiy ideologiya asosida tuzilgan. G'arb namunasidan farqli ravishda Turkiyadagi siyosiy partiyalar davlat mafkurasi asosida faoliyat dasturlarini belgilaydilar.

Turkiyada ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tishidan bugungi kunimizgacha yegirma oltita siyosiy partiya yopilgan . TBMM Tadqiqot Markazi tomonidan 15 Yevropa mamlakatlarida siyosiy partiyalar yopilish namunalari

qarab tayyorlangan qiyosiy tahlil natijalariga ko`ra, o`nbir davlatda partiyalar yopilishi umuman ko`zatilmasa, qolgan boshqa 4 davlatda bu hol juda o`z sodir bo`lgan.¹ “Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi o`ng va so`l siyosiy partiyalar ilgari surayotgan g`oyalar, “sistema”, “davlat”, “rasmiy ideologiya” kabi umumiy tushunchalar emas, to`g`ridan to`g`ridan “shaxs”, “huquq”, “erkinlik”, “siyosiy aralashuv” kabi tushunchalardan iboratdir.”² Turkiyadagi siyosiy partiyalar , juda ko`p sonli³ bo`lishiga qaramasdan, davlat tomonidan ilgari surilgan “rasmiy ideologiya” asosida faoliyat olib boradilar.

Turkiya tarixida siyosiy partiyalar ham jamiyat hayotida, ham davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib ayta olamizki, siyosiy partiyalar, turk demokratiyasining voz kechib bo`lmaydigan asosidir. Ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tilgandan so`ng bir necha davlat to`ntarishlari amalga oshirildi, siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Biroq, ko`ppartiyaviylik tizimi baribir saqlanib qoldi. Zotan, ko`ppartiyaviylik tizimi nafaqat demokratik tamoyil sifatida vatandoshlarning manfaatlari uchun xizmat qiladi balki, Turkiyaning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini ham belgilaydi.

¹ TBMM Araştırma Merkezi Raporu Sonuç Duyurusu: <http://www.meclishaber.gov.tr/develop>.

² Ömer Çaha. Türkiye’de siyasal partiler ve Arupa Birliği.-Ankara:Ankara yayinevi, 2003, -S.56.

³ 60 dan ortiq

II-bob. Turkiya siyosiy partiyalarining mafkuraviy tasnifi

2. Siyosiy partiyalar mafkurasida din, milliylik va sekulyarizm g'oyalari

Turkiya Respublikasi axolisining 99 % musulmon bo'lib, qolgan 1%ini pravoslav, yaxudiy, katolik, proteststant va boshqa xristian mazxablaridan bo'lgan kishilar tashkil etadi. Konstitutsiyada har turk fuqarosining diniy e'tiqod erkinligiga egaligi belgilab qo'yilgan. Hech kim ibodat, diniy tadbirlarda ishtirok etishi va diniy e'tiqodini oshkora aytishga majbur qilinmaydi. Hech kim diniy e'tiqodi uchun ayblanmaydi.

Sekulyarizm (laiklik - laisizm). Sekulyarizm - siyosiy va ijtimoiy tuzumning din va davlat ishlarining alohida yuritilish tamoyiliga asoslanishidir. Turkiyadagi adabiyotlarda Turkiya Respublikasining sekulyar davlat ekanligi Islom davlatlari orasida o'z Konstitutsiyasida sekulyarizmga keng o'rin bergan va buni amalga oshirgan yagona mamlakat ekanligi, mamlakatda diniy ishlar bilan yagona tashkilot - Dinin Ishlar Bosh Boshqarmasi shug'ullanishi doimo ta'kidlanib kelinadi.

Turkiyada siyosiy islom harakatini maqsadiga ko'ra ikki yo'nalishga bo'lish mumkin: "radikal siyosiy islom" va "parlamentar siyosiy islom". Bu jarayon 70-yillarda islomni siyosiy lashuvi bilan ibtidosi boshlangan. 1970-yili parlamentar siyosiy islom yuzaga kela boshladi. "Milliy tartib partiyasi" ana shulardan biri edi. Keyinchalik bu partiyani vorisi sifatida Refah partiyasi keladi va shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Turkiya respublikasi Otaturkning dunyoviylik va sekulyar g'oyalari asosida qurilgan bo'lib, davlatning din bilan munosabati ikki bosqichda rivojlangan.

Birinchi bosqich, 1923-1590 yillarni o'z ichiga olgan bo'lib bir partiyaviylik davrga to'g'ri keladi. Bu davrda davlat va din bir-biridan ajratilganiga qaramay diniy ishlar davlat nazoratida bo'lgan. Xalqning diniy ihtiyojlarini tartibga solish maqsadida Diyonat ishlari raisligi tashkil etilgan bo'lsada har qanday diniy ta'lim olish taqiqlangan. Davlatning iqtisod, san'at va madaniyat sohasidagi nazorati din ustida ham bo'lgan. Bu davrdagi amaliy islohotlar umumiy qilib laitsizm (turkcha laiklik) deb nomlangan dunyoviy lashish faoliyati orqali amalga oshirilgan. Bu

davrdamamlakatdayagonaRespublikaxalqpartiyasig`oyalariorqalidavlat boshqarilgan. Qo`yidaRXPningdinvadunyoviylikhaqidagimafkurasi bayonetamiz.

“Barcha e`tiqodlar davlat oldida tengdir. RXP davlatni diniy etiqodlarga aralashmasligini, shuningdek, din ham davlat ishlariga aralashmasligini taminlaydi. E`tiqod va ibodat erkinligi insonning muqaddas va daxl etilmaydigan huquqi hisoblanadi. Partiya dinning bosim ostida olinishiga qarshidir. Laitsizm bu davlat va din ishlarining bir biridan ayro tutulishidir. Laitsizmga qarshi xalqaro bir strategiyaning Turkiyaga qarshi xurujlari qarshisida, RXPning maxsus olg`a surgan g`oyasi - bu laitsizmdir. E`tiqod, ta`lim va siyosatni bu kabi xurujlardan saqlash RXPning oldida turgan vazifasi va masuliyatidir. ” Ushbu g`oyalar RXPning dasturida aks ettirilgan. Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimining qaror topishi mamlakatdagi mafkurviy manzaraga ham tasir etgan.

Turkiyada 1950 yildan so`ng, ko`ppartiyaviylik hayot bilan birga rivojlangan demokratiyalashuv jarayonlariga paralel ravishda diniy sohaga nisbatan moyillik ko`zga ko`rina boshlandi. 1950 yilgi saylovlarga kirmasdan oldin ta`lim faoliyatini boshlagan imomxatiblarni tayyorlovchi bilim yurtlari va ilohiyot fakultetlari bilan diniy ta`limning oldi ochildi. Bundan ham ahamiyatlisi demokratik sestemaning muhim jihati bo`lgan diniy g`oyalarni olg`a suruvchi ijtimoiy harakat va tashkilotlar ko`zga tashlana boshlandi. Xususan, 1980-yildan keyin iqtisodiy va siyosiy leberallashuvga paralel tarzda boshqa ijtimoiy tashkilotlar bilan birga diniy birashmalar ham jamiyat hayotiga keng miqyosda kirib kelgan. Iqtisoddan ta`limgacha, siyosatdan entelektual sohaga qadar yetgan tulqinlarda islomiy guruhlarning ovozi kun sayin balandroq yangrarkan, ijtimoiy maydonda an`naviy va diniy qadriyatlarga nisbatan diqqatga sazovor moyillik paydo bo`la boshladi.

1980 yillarga qadar siyosiy partiyalar himoyasida mavjudiyatini saqlagan diniy guruhlar 1980 yildan so`ng, siyosiy partiyalardan mustaqil harakat qilganlar. Hatto siyosiy partiyalar ularning dastagiga ihtiyoj sezganlar.

Bu davrga kelib aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil etuvchi Turkiyada diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning faoliyati jadllashibgina qolmay, parlament va hukumatda o'z o'rnini topa boshladi.

1950 yildagi saylovlarda islom tarafdorlari Milliyatchi partiyasini qo'llashiga qaramay saylovlar Demokratik partiyaning g'alabasi bilan yakunlandi. Menderisning nutqlaridan so'ng islomchilar DPga yaqinlasha boshladilar. 1950 yil 16 iyunda azonning arabcha o'qilishining joriy etilishi DPning islomiy tashkilotlar bilan yanada yaqinlashtirildi. Bundan tashqari radio dasturlaridagi diniy chiqishlarni taqiqlovchi qonunning bekor qilinishi, din darslarining ommaviylashuvi DP islomga xayrixohligini ko'rsatdi. Menderesning Said Nursiyning qo'lini o'pishi, deputalarga qarata" Xohalasangiz hatto xalifalikni qaytara olasiz!"¹ singari xitoblari ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Biroq, partiyadagi islomiy harkatlarning kuchayishi, bir muddatdan so'ng, ijtimoiy muhitga tahdid soluvchi voqiyalarga zamin hozirlagandan so'ng, DP laitsizm g'oyalariga qayta ega chiqq boshladi. Bu amaliy o'zgarishga sabab bo'lgan muhim voqiyalardan eng diqqatga sazovori 1952 yilda Vatan gazetasi bosh muharriri Ahmet Emenga qilingan suiqasd tufayli yaralanishi boldi. Mazkur voqiyalar tufayli hukumat islomiy harakatning kengayishiga qarshi munosabatini bildirishga majbur bo'ldi. Dinning siyosatga aralashuvini taqiqlovchi qonun ihtiyoji tufayli, 1953 yilda Vijdon erkinligi qonuni qabul qilindi. Bundan oldin 1951 yilda Otaturk g'oyalarini himoya qiluvchi qonun qabul qilingan edi.²

Turkiyada ko'ppartiyaviylik hayotga o'tilgandan so'ng, islomiy harakat va ideologiyaning o'ng partiyalarga yo'nalganini ko'rishishimiz numkin. 1945-1950 yillarda islomiy an'ana mafkurasining eng faol vakili bo'lgan Millat Partiyasi islom tarafdorlarining qo'lashi natijasida jiddiy muxolif partiyaga aylangan. Keyinchalik AP atrofida birlashgan islomiy guruhlar uning islomiy partiya emasligini tushungandan so'ng Milliy nizom partiyasiga qo'shilganlar. Milliy

¹ Duman Doğan. Demokrasi Sürecinde Türkiye'de İslamcılık. - İzmir: Dokuz Eylül Yayınları, 1999, - S.68.

² Akşin Sina. Türkiye Tarihi-Çağdaş Türkiye.-İstanbul: Can Yayınları, 2000, - S.467.

nizom partiyasi qurilishiga qadar islom tarafdorlari Islom demokratik partiyasini tashkil etganlar. Biroq bu partiya muvaffaqiyatsizlikga uchragan. Ko`ppartyaviylik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalarning dasturlarida din va dunyoviylik masalalarini tahlil etish orqali mavzuga oydinlik kiritamiz.

Miliyatchi harakat partiyasi(MXP)¹ning dasturida din va dunyoviylik masalasi qo`ydragicha aks etgan.

“Milliy birlik va yaxlitlikni, xalq manfaati va axloqiy qadriyatlarga qarshi chiqmasligi sharti bilan, fikr bildirish va e`tiqod taqozosi bilan yashashga to`squinlik qiladigan taqiqlarni, shuningdek e`tiqodiy erkinlikdan foydalanish vositalari(matbuot, nashrlar va b.) ustidagi cheklovchi normalar yo`q qilnadi. E`tiqodli, yuksak axloqli sog`lom xarakterga ega yoshlar tarbiyalanadi. Jamiyat va davlat hayotida, din va vijdon erkinligiga to`squinlik qilinishi, insonlarning e`tiqodlari va ibodatlari yuzasidan jabr ko`rishlari, tanqid etilishlari, qanday shartlar bilan bo`lmasin din va vijdon erkinligining taqib ostiga olinishi va noqonuniy yo`llar bilan cheklanishi qabul qilib bo`lmaydigan qoida sifatida baholanadi.”

Saodat Partiyasi (SP)²ning dasturida din va dunyoviylik masalasi.

“Saodat Partiyasi bu mamalakatda yashaydigan barchaning din va vijdon erkinligini himoya qiladi. Barcha din, qanoat va vijdon erkinligiga, ibodat va diniy marosimlarni alohoda yoki jamoat bo`lib ado etish huquqiga egadir. Din va vijdon erkinligi insonning asosiy huquqi hisoblanadi. Bu huquq din tanlash, dinni yolg`iz yoki jamoaviy tarzda oshkora tarzda yoki maxsus sur`atda ta`lim, targ`bot va ibodatlarni oshkora amalga oshirish, shuningdek turli birlashmalar tashkil etish kabi huquqlarni o`z ichiga oladi. Hech kimsa din va e`tiqodlarini oshkor etishga majbur etilmaydi. Hech bir shaxs yoki tashkilot din va e`tiqod masalasida boshqa bir shaxsni majburlay olmaydi. Davlat, laitsizm g`oyalariga binoan hech qaysi din va e`tiqodga taraf bo`lmasligi kerak. Bu sababdan davlat, har qaysi bir dinning e`tiqod va ibodat faoliyatlariga to`squinlik qilmaydi. Layitsizm ilmiy va insoniy

¹ www.mhp.org.tr

² www.sp.org.tr

tajriba qonunlariga asoslanib amalga oshirilishi kerak. Faqat, layitsizm aslo dinsizlik, dinga qarshilik sifatida tushunilmaydi. Aksincha, layitsizm harkimning xohlagan dinga e`tiqod etishidir.”

Ishchi Partiyasi (IP)¹: Barcha vijdon,qanoat va diniy e`tiqod erkinligiga ega. Barcha diniy e`tiqodni ilmiy asoslarini sharhlashga haqlidir. Insonlarning diniy ehtiyojlarini qondirishlari uchun mo`ljallangan joylar yopilmaydi. Diniy e`tiqodga majburlanmaydi. Davlat hech qaysi dinni tarafdori va himoyachisi bo`lmaydi. Ta`lim, demokratiya ilmiy va dunyoviy tushunchadir. Dinlar haqidagi bilim falsafa, tarix, va sotsologiya darslari tarkibida o`qitiladi. Ruhiniylar sinfi bo`lmaydi. Maoshli diniy mansablar bekor etiladi. Diniy odamlarni ish bilan taminlash davlatning zimmasidadir.

Turkiya komunist partiyasi (TKP): Barcha e`tiqodiy erkinlikga ega. Hech kim insonlar ustidan ma`naviy bosim o`tkazolmaydi. Dinning siyosiylashuviga to`squinlik qilinadi. Isonlarning diniy e`tiqodlari hech bir rasmiy hujatlardan joy olmaydi. Din, ta`lim tashkilotlarida ijtimoiy bilimlar sifatida o`rgatiladi. TKP harqanday metafizik e`tiqodning o`rniga insoniyatning ilmiy muvaffaqiyatlarini maqbul ko`radi va buning uchun kurashadi.

Tinchlik va demokratiya partiyasi (TDP): Turkiyada davlatning sekulyarizm mavzusidagi siyosati davomli muammo bo`lgan. E`tiqod va vijdon erkinligining ta`minlanishida yetarsizlik yuzaga kelgan. Din va e`tiqod guruhlari orasida betaraf qolingan, din davlat nomidan yagona e`tiqodiy mazhabning vakolatiga tayangan va shu yo`sinda shaxslarning e`tiqodiy erkinliklari to`squinlik qilingan. Din va vijdon erkinligi yalpi himoyalaniadi. Davlat barcha dinlarga teng munosabat va masofa saqlaydi, barcha fuqarolarning diniy e`tiqod va vijdon erkinliklarini himoya qilish bilan mas`ul bo`ladi. Ko`pchilikning din va mazhabiga asoslangan boshqaruv tashkilotlari o`zgartiriladi. Diyonat ishlari vazirligi demokratik tuzilishga erishadi. Tadrijan din va e`tiqod ishlari yoppasiga e`tiqodiy guruhlarga qoldiriladi. Barcha e`tiqodlarning o`zini himoyalashi, rivojlantirishi,

¹ www.ip.org.tr

ibodatlarini erkinlashtirilishi, ta`lim dasturlarida din darslarini mazburiy tizimdan chiqarilib tanlov holiga keltiriladi. Farqli din va mazhab guruhlarining e`tiqod va ibodat erkinligiga hurmat ko`rsatiladi. Alaviy fuqarolarning ham boshqa yurtdoshlar kabi, erkinlik bilan ibodat qilishlari uchun ibodatxonalar barpo etilishi yo`lidagi to`siqlar yo`q qilinadi. Azadiy, Suryoniy kabi farqli e`tiqod vakillarining o`zlarini oshkor etishlaridagi to`siqlar olib tashlanadi. Har qanday ibodat va ta`lim faoliyatlariga imkoniyat yaratiladi. Musulmon bo`lmagan guruhlar va jamoatlarning tashkillanishi va jamoatlarining tuzulishi yo`lidagi to`siqlar olib tashlanadi, rivojlanish uchun har qanday homiylik ta`minlanadi. Erkinlik g`oyasining va demokratiyaning ihtiyoji hech bir e`tiqoddan ustun qo`yilmasligi uchun lozim bo`lgan bag`rikenlik yaratiladi.

Yuqoridagi qarashlar Turkiyadagi siyosiy partiya dasturlaridan olingan edi. Ma`lum bo`lmoqdaki, Turkiyada din va e`tiqod masalasi ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham ma`naviy jihatdan ahamiyatga molik hisoblanadi.

Turk siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan o`ng va so`l kamolchilar bilan birga uchunchi mafkura ham mavjud edi. Bu diniy va milliy qadriyatlarni yoqlaydigan konservativ ruhdagi siyosiy partiyalar edi. Bir partiyaviylik tizimi davrida bu mavzuda jiddiy tashabbus ko`zga tashlanmaydi. Ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tilgandan so`ng, diniy va milliy qadriyatlarni targ`ib etgan partiyalar paydo bo`ldi. Misol uchun, DP(Demokratik partiya) tarkibidan ajralib chiqqan Millat partiyasi o`z dasturida diniy g`oyalarni milliy qadriyat sifatida baholab milliy a`nanalarni himoyalagan. Keyinchalik tashkil topgan Yangi turkiya partiyasi, Respublikachi xalq partiyasi, Hurriyat partiyasi kabi partiyalar milliy va diniy qadriyatlarga yanada ko`proq e`tibor qaratgan.. Milliy qadriyatlarni yoqlab g`arblashuvga qarshilik qilgan Milliy salomat partiyasi muvaffaqiyatli harakat olib borgan.

Turkiya Respublikasidagi diniy hayot haqida gapirganda hozirgi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan radikal islom aqidaparastlik va diniy ekstremizm haqida to`xtash kerak bo`ladi. Turkiya hududida islomiy radikal guruh va tashkilotlarni faoliyati turlicha olib boriladi. 1979- yildagi Eron inqilobi bilan birga

o'zining yangi davrni boshlagan radikal islom bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarda mavjud bo'lib, yirik jug'rofiy kenglikni qamrab olgan harakatdir. Eron inqilobi G'arbga qarshi kurashning bir usuli sifatida radikal islom va islomiy inqilobni eksport qilish tushunchalarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Tuzumni o'zgartirishning qurolli kurash usulini qo'llayotgan radikal islom harakati musulmon dunyosi xalqlarini terrorchilik va anarxiyachilikka undamoqda. Islom dinining asl mohiyatiga butunlay zid bo'lgan bunday harakatlar ayniqsa qashshoqlik hukum surgan va taraqqiyot orqada qolgan mintaqalarda kuchaymokka.

Radikal yo'nalishdagi islomning nisbatan oddiyroq ko'rnishi aqidaparastlikdir. Aqidaparastlik, Turkiyadagi mazkur mavzu bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining fikricha, bugungi muammolarning hal etish yo'lini topish islom dinining dunyoda kattadan o'rin egallashi uchun uning asoslariga tarixiy ildizlari va manbalariga yangicha yondashuv bilan murojaat etishni maqsad qilgan oqim va harakatlarni o'zida mujassamladi. Radikal islom esa aynan ana shu aqidaparastlikdan siyosiy mafkura sifatida foylalanadi.

Bu ikki tushuncha o'rtasidagi farq juda aniq Turkiyada chop etiltgan «Radikal» gazetasining bosilgan «Qon hisobiga amalga oshiriladigan o'zgartirish» nomli maqolada shunday deyiladi: «Islom aqidaparastlarning g'arblashish uchun emas, zamonaviylashish uchun kurash olib boradi. Ular demokratiyani tan oladi, uni inkor etmaydi. Radikal islom esa, demokratiyani G'arbning mahsuli sifatida tamoman inkor qiladi. O'zi haligacha ishontiruvchi bir dasturni o'rtaga qo'ymagan va hech qachon qo'ya olmaydi ham. Ammo xayoliy islom davlatni o'zi uchun najot nuri deb biladi va uning ortidan quvadi. Islom dunyosining orqada qolishiga bosh aybdor deb o'zini sxolastika devorlari ichiga qamab olgan diniy mutaassiblik ekanini unutgan bu kuchlar, imperializmdan chekkan uqubatlarini ro'kach qildi. G'arbga osilishga harakat qiladi».

Xayfa universiteti xalqaro terrorizm va ekstremizm tashkilotlari muammosi bo'yicha chuqur izlanish olib borgan yahudiy mutaxassis E. Karmonni "1968-1990 yillarda Turkiyadagi koalitsion terroristik tashkilotlar" to'g'risidagi ilmiy

izlanishida Turkiya hududida 90- yillargacha bo`lgan islom terrorchi tashkilotlari faoliyati tog`risida ko`p ma'lumotlarni keltirgan. Uning yozishicha Eronni ta'siri katta bo`lgan va o`z hududidan Turkiya radikal islomiy kuchlariga panoh bergan. Turk hukumati esa e'tibori susayganidan bu guruhlar o`zlarini moliyaviy tarafdin tiklab olishiga va homiylik orttirishga zamin bo`lgan. Lekin hozirda turk millati milliy birligi, hududiy birlikka va dunyoviy jumhuriyat poydevoriga zarba beruvchi kuch sifatida birinchi raqamli xavf bu –separatist kurdiston ishchilar partiyasi faoliyati ko`rilyapti.

2. Turkiya syosiy partiyalari dasturlarida demokratiya va liberalizm

Turkiya 1945-yildan etiboran ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tish jarayoniga qadam qo`ygan va 1950-yildagi saylovlarda ilk bor hukumat almashgan. Turkiyada demokratiya bu davrdan, bugungacha uch marta taqiqqa uchragan. Demokratiya to`siqqa uchragan har bir davrda siyosiy partiyalar yo yopilgan, yoki faoliyatlarini to`xtatishga majbur etilgan. Bu hol, Turkiyada demokratik model qanday bo`lsa bo`lsin, demokratik qadriyatlarni aniq o`zlashtirmaganligining ochiq ifodasidir. Demokratik qadriyatlarning amalda namoyon bo`lishi siyosiy partiyalarning iqtisodiy siyosatini tahlil etish orqali namoyon bo`ladi.

JHP (Jumhuriyat xalk partiyasi) Mustafo Kamol Otaturk va safdoshlari tarafidan 1923-yilda 9-sentyabrda tashkil etildi. Partiya dasturiga nazar tashlaganda jinsiy tenglik va ko`pmadaniyatlikdan tashqari, barcha leberal demokratik qadriyatlarga yaqinlashuvi tufayli so`l tomonga o`tgan. JXPning dasturida siyosiy leberalizmning asosiy qadriyatlari hisoblangan shaxs va erkinlik tushunchalariga etibor berish bilan birga tenglik, o`zlik, ozinlik kabi tushunchalarga e`tibor qaratgan. “JXPning qarashi, qaysi ildizdan kelib chiqishidan qat`iy nazar, qaysi til va dinga mansub bo`lishiga qaramay hech kim “ozinlik” maqomida bo`lmaydi. Barcha davlatning manbasi va egasidir” –jumllaridan yuqoridagi fikrlarimizning isbotini ko`rishimiz mumkin. Ushbu qarashlar iqtisodiy siyosatda ham namoyon bo`ladi.

JXP iqtisodda tashabbus va xususiy mulk nisbatan xayrixohligini soʻl siyosiy chizgida koʻrsatadi.¹

Adolat va Uygʻonish partiyasi(AUP): 2001-yilda Rajab Erdogʻan tomonidan tashkil etilgan. Turkiyaning 58 va 59-hukumatini tuzgan partiya. Mazkur partiya dasturidagi asosiy va tayanch tushunchalar tahlil etilganda demokratik qadriyatlarga katta ahamiyat berilganiga guvoh boʻlamiz. Shaxsiy va jinsiy tinglik kabi tushunchlarga koʻp eʼtibor qarayilmagan boʻlsada, partiya dasturida iqtisodiy liberalizmning tayanch tushunchalari boʻlgan xususiy mulk, savdo va sarmoya kabilarga muhim ahamiyat qaratilgan. Partiya dasturida shu jummalarni koʻrishimiz mumkin. "Partiyamiz(.....) xususiylashtirishni yanada ratsional iqtisodiy tizimni yaratish vositasi sifatida koʻradi. "² AUP demokratiya iqtisodiy tamoyillar masalasida liberal yondashgani uning partiya dasturidan maʼlum boʻladi.

Ona Vatan partiyasi (OVT yoki ANAP): 1983-yil 20-mayda Turgʻut Oʻzal yetakchiligida tashkil topgan. Partiyaning dasturiy kategoriyalari tahlil etilganda liberal demokratik qadriyatlarga yanada koʻproq darajada ahamiyat berilganini koʻrishimiz mumkin. Turgʻut Oʻzal boshchiligidagi ANAP 1983- yilda bir oʻzi hokimiyat tepasiga kelgan boʻlsa, 1987- yil saylovlari natijasiga koʻra ham xokimiyat tepasida qolishga muvaffaq boʻldi.

Oʻzal davrining oʻziga xosligi ketma-ket amalga oshirilgan jasur va keskin islohatlar bilan iqtisodiyotning oʻz yoʻnalishi va shaklini oʻzgartirishida namoyon boʻldi. Oʻzal "Ulkan transformatsiya " deya nomlagan liberal tadbirlar bilan Turk pulining qiymatini oshirish, belini baquvvatlash qonuni va Kambio rejimi tubdan oʻzgartiriddi. Eksport va importga keng yoʻl ochib berildi, erkin konvertatsiya tizimiga oʻtildi. Ilgarigi yopiq iqtisodiyot va tizginlangan import oʻrnini eksportga ustuvorlik beruvchi ochiq iqtisodiy siyosat egalladi. Ishlab chikarish eksportga yoʻnaltirildi. Davlat daromadlarini oshirish uchun qoʻshimcha qiymat soligʻi (NDS - KVD) kuchga kiritildi. Xususiylashtirish idoralari tashkil etildi. Erkin savdo mintaqalari tuzildi. Shu kabi yoʻllar bilan iqtisodiy yuksalish jadallashtirildi,

¹ www.chp.org.tr

² www.akp.org.tr

xronik xolatga kelib qolgan valyuta boshlig'i muammosi hal etildi. ANAPning kapitalistik va liberal demokratiyaga daxldor shaxsiy erkinlik kabi tushunchlarini muhofaza qilgani ma'lum bo'lmoqda.

Buyuk birlik partiyasi(BBP): 1983-yilda Muhsin Yazichi o'g'li liderligida Milliyatchi mehnat partiyasidan ajralib tashkil etildi. Partiya dasturida shaxs va erkinlik tamoyillariga urg'u berilgan. Boshqalardan farqli ravishda partiya ishtirokchi demokratiyani yoqlab chiqqan. Partiya dasturida mazkur jumlar o'rin olgan. " vakillik demokratiyasi o'rniga ishtirokchi demokratiyasini xalqning o'zini o'zi boshqaradigan siyosiy kuch sifatida siyosiy hokimiyatning cho'qqisidan o'rin olishini talab etimiz. " Partiya ayni paytda shaxsning kelib chiqishi va ozinlik tushunchalariga salbiy qarashlarni olg'a surgan. Shaxsiy kelib chiqish masalasida qoydagi fikrlar bayon etilgan. "Turk millatini asrlardan beri bir xel taqdir, bir xel etiqod va mafkura bilan yashagan insonlarning mushtarakligini idrok etamiz. Milliyatchilik: markazda e'tiqodlarimiz bo'lishi bilan birga, yashagan geografiyada asrlardir birga yashaganimiz insonlarimizning barini bag'riga olgan bir mushtarak mafkurani qabul etamiz. Irqiy mansublik tufayli har qanday bo'linishni rad etamiz. "1 Iqtisodda ham erkinlik tarafdoridir.

Demokratik so'l partiyasi (DSP): 1985-yilda Bulent Ejevet tomonidan tashkil etilgan. Partiya 1999-yilda B.Ejevet boshchiligidagi 57-hukumatni tashkil etdi. DSPning dasturida ko'rsatilgan tushunchalar tahlil etilganda siyosiy liberal qadriyatlarga aloqador sharhlardan erkinlik va ishtirok masalalariga alohida e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Ko'pmadaniyatlilik ham asosiy partiya targ'ib etgan g'oyalar qatoridadir. "Turkiya madaniy jihatdan boy mamlakatdir.....DSP madaniyatga berilgan e'tiborni oshirib madaniyatimizni xalqaro nufuzini yuksaltiradi."2 Iqtisodiy liberalizm masalasida esa, partiya xususiylashtirishga urg'u bermagan bo'lsada sarmoya va tadbirkorlik tashabbuslariga e'tibor qaratgan. Partiyaning dasturidan kelib chiqib markaz partiyasi sifatida baholasak bo'ladi.

¹ www.bbp.org.tr

² www.dsp.org.tr

To`g`ri yo`l partiyasi(TYP): 1983-yilda Sulaymon Demerel boshchiligida tuzilgan. TYPning partiya dasturida demokratik va liberal g`oyalar o`z aksini topgan. Erkinlik va shaxsiy qadriyatlarning himoyalash partiya etibor qaratgan masalalardan hisoblanadi. Tenglik masalasida to`xtalmagan bo`lsada, partiya ijtimoiy va jinsiy tenglikni shaxsiy qadriyat sifatida baholagan. Ijtimoiy tenglikni taminlash maqsadida partiya dasturida qo`ydagi jumlanı doxil etgan. “..ishchi-mamur tushunchasi o`rniga mehnatkashlar tushunchasi qabul qilinadi.”¹ Iqtisodda xususiylashtirish masalasi bilan bir qatorda ijtimoiy adolat masalasi ham ko`zda tutilgan.

Milliyatchi harakat partiyasi(MHP) . 1954-yilda tashkil topgan. 1981-yilda 2533 sonli qonun bilan yopib qo`yiladi. 1983-yilda yangidan tashkil topdi, rahbar Davlat Bog`chali bo`lib kelmoqda. Bu partiya liberal va demokratik tamoyillarnı o`zlashtirgan. Shuningdek partiya dasturida siyosiy ishtirok masalasiga urg`u berilgan. Iqtisodda erkinlik va liberal qadriyatlarnı tarafdori bo`lib sarmoya, tashabbus, raqobat va xususiylashtirish kabi masalarga ijobiy qaralgan. Erkin savdo va erkin iqtisodiy munosabatlar tarafdori bo`lgan.

Saodat Partiyasi(SP) 2001-yilda Milliy mafkura tarafdorlari tomonidan tashkil etilgan. SPning siyosiy liberalizmga daxldor qarashlaridan ma`lum bo`lgan tushunchalardan eng diqqatga sazovori bu erkinlik masalasidir. Ekinlik insonlarning e`tiqodiy va fikriy mustaqilligi demakdir. Partiya mamlakat taraqqiyoti xalqni yagona milliy mamfkuraga birlashtirish va millatparvarlik tuyg`usini shakllantirishga bog`liq deb hisoblaydi.

3 Globallashuv va integratsion jarayonlarining partiyalar siyosiy mafkuralarida aks etishi

XX asrning ikkiinchi yarmidan boshlab dunyodagi siyosiy manzara yangichia ko`rinish kasb eta boshladi. Turli ijtimoiy guruhlarning va mamlakatlarning ma`lum maqsad yo`lida birlashib harakat qilishi, millatlar va davlatlararo

¹ www.dyp.org.tr

munosabatlarda integratsion jarayonlar kuchaytirdi. Turli ittifoqlar, xalqaro tashkilotlar va shartnomalar fikrimizning isbotidir.

Turkiyaning geostrategik joylashuvi, shuningdek etnomadaniy xusisiyatari, uning xalqaro munosabatlaridagi mavqe`yi bilan birga, davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo`lgan siyosiy partiyalari faoliyatiga ta`sir etgan. Turkiyada G`arb va Sharq madaniyatlari to`qnashganini, sivilizatsiyalar muloqotining o`ziga xos samalarini ko`rishimiz mumkin. Bu esa, davlat va jamiyat boshqaruvida ham o`z ifodasini topgan. Turkiyada siyosiy partiyalar demokratik tamoyillarni turli xususiyatlar bilan ifodada etishlariga qaramay, hukumat tuzish jarayonida ishtirok uchun lozim bo`lgan saylov ovozi uchun kurashadilar. Siyosiy kurashlarda tarafdor qozonish ko`p jihatdan ular taklif etadigan siyosiy dasturga bog`liq. Shuning uchun, mamlakatning barcha sohalarini qamragan dasturda mamlakatning kelgusi taraqqiyoti aniq ifodalangan bo`ladi. Tabiiyki, nafaqat mamlakat ichidagi holat, balki xalqaro siyosiy jarayonlar ham siyosiy partiyalarning dasturlarida o`z aksini topadi.

XX asrning ikkinchi yordan boshlab butun dunyoda globallashuv va integratsion jarayonlar jadallashdi. Mazkur jarayonlar Turkiyadagi faol siyosiy partiyalar siyosiy mafkurasida aks etibgina qolmay, mamlakat kelajagini va taraqqiyot istiqbollari baholaydigan strategik loyhalar ishlab chiqishga zamin hozirladi. Qo`yida siyosiy partiyalar dasturlariga murojat etib Turkiyaning globallashuv va integratsion jarayonlarda qanday tashqi siyosat olib borishi bo`lishi kerakligini tahlil etamiz.

Adolat va uyg`onish partiyasi: “Turkiya o`z geosiyosiy maqomi bilan muvaffaqiyatli tashqi siyosat olib borish imkoniyatiga ega.” Mazkur partiya o`zdasturida tashqi siyosatga ko`p o`rin ajratmagan bo`lsa ham Turkiyaning geosiyosiy imkoniyatlarini yuqori baholab ishonchli aloqalar olib borish samaradorligini ko`rsatgan. Yevropa ittifoqi bilan hamkorlik yo`llarini ifodalagan. Shuningdek, AQSh, O`rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, Rossiya, O`rta Osiyo, Islom mamlakatlari,, Kavkaz, Xitoy va bolqon davlatlari bilan hamkorlik yo`llari alohida paragriflarda ifodalangan.

1923 yilda mamlakat imperiyadan respublika boshqaruviga o`tdi. Davlatchilik, layitsizm, sikulyarizm kabi tamoyillar orqali mamlakat demokratik taraqqiyot yo`lidan bordi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa, mamlakatda ko`ppartiyaviylik tizimi qaror topdi. Biroq ketma- ket sodir bo`lgan davlat to`ntarishlari siyosiy partiyalarning bir necha bor taqiqlanishiga sabab bo`ldi. Bu esa partiyalar faoliyatida va erkinligida ba`zi muammo va kamchiliklar mavjudligidan darak beradi. Bu muammolar G`arbga intilayotgan Turkiya uchun to`siq bo`lmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiya tashqi siyosati kapitalistik davlatlar bilan yaqinlashuv munosabatlari bilan xarakterlanadi. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo`shilish uchun harakatlari va uning istiqbollari bugungi kundagi bahsli mavzulardan biriga aylangan. Turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va tashqi siyosatdagi muammolar Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo`shilolmasligi uchun to`siq bo`lmoqda. Shu kabi muammolardan biri siyosiy partiyalar faoliyati va ularning erkinligidir.

“Turkiyaning Yevropa Ittifoqi a`ziligiga nomzod sifatida qabul qilinishi, siyosiy partiyalar ahamiyatini yanada oshiradi. Zero, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga hamkor etadigan darajadagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy reformalarning ijodkori shubhasiz siyosiy partiyalardir. Bundandan ham muhimi, Turkiyani o`z a`ziligiga nomzod sifatida qabul qilgan Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarda siyosiy partiyalar demokratiyaning markazida turadi”.¹

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo`shilishi uchun to`siq bo`layotgan iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda demokratiya va inson huquqlari masalasi ham namoyon bo`lmoqda. Mazkur maqsad yo`lida amalga oshirilgan islohotlar nafaqat iqtisod sohasida, balki siyosiy sohada ham talab etiladi. Siyosiy sohadagi islohotlar, birinchi navbatda partiyalarning demokratik faoliyatini taminlash orqali namoyon bo`ladi.

¹ Ömer Çaha. Türkiye’de siyasal partiler ve Arupa Birliği.- Ankara:Istanbul yayınları, 2003, - S.28.

“Turkiyada partiyalarning demokratlashuvida jiddiy muammolar mavjuddir. Bu muamolar siyosiy partiyalarni bir chegarada ushlab turgan tashqi omillar qatori, partiyalar faoliyati va tashkiliy xususiyatlarida ham ko`rinadi.”¹

Yevropa Ittifoqi, shubhasiz o`n to`qqizinchi asrdan e`tiboran G`arbda rivojlangan demokratik tizimni va bu sistemani barqarorligini ta`minlagan qadriyatlarni jonli shaklda davom erttirgan davlatlardan tuzilgan. Bu mamalakatlarda demokratiya rivojlangan sari siyosiy partiyalar asosiy o`ringa chiqqa boshlagan. Shuning uchun, Turkiya o`zini Yevropa Ittifoqining a`zosi sifatida ko`rishi uchun siyosiy partiyalar faoliyatidagi erkinlikni ta`minlashi va shu orqali inson huquqlari, jumladan ayollar huquqini va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishi lozimdir

“Siyosiy partiyalar XIX asrning ikkinchi yarmidan itiboran ijtimoiy va iqtisodiy farqli qarashlarni siyosiy maydonga chiqarish, siyosiy aralashuv yo`li bilan ijtimoiy qatlamlarning davlat boshqaruvga ishtirokini taminlash va hokimiyatni ijtmoiy guruhlarga tayanishini ta`minlash kabi vazifalarni zimmasiga olgan holda faoliyatini rivojlantirgan. ”

Ma`lumki, demokratik taraqqiyot, birinchi o`rinda inson huquqlari va manfaatlarining ta`minlanishini ko`zda tutadi. So`z va fikr erkinligi, saylash va saylanish huquqi, siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi kabi tushunchalar demokratiyaning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Ushbu tamoyillarning amalda namoyon bo`lishi esa, shubhasiz siyosiy partiyalar faoliyati bilan bog`liqdir.

“Siyosiy partiyalar aholining siyosiy huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta`minlash orqali davlat va jamiyat o`rtasidagi o`ziga xos ko`prik vazifasini o`taydi.”²

Siyosiy partiyalar, nafaqat tashkiliy xususiyatlari jihatidan demokratik tamoyilarga asoslanadi, ayni paytda demokratik qadriyatlarni amalda namoyon bo`lishini ham o`z zimmassiga olishi bilan xarakterlanadi. G`arbdagi siyosiy

¹ Ömer Çaha. Türkiye’de siyasal partiler ve Arupa Birliği.- Ankara:Istanbul yayinlari, 2003, - S.29.

² Saylov va siyosiy partiyalar. I. Bekov, K. Hamidova .- Toshkent: O`zbekiston, 2009, - S.12.

partiyalar (hatto Sotsialistik partiyalar ham) katta miqyosdagi “total” va “inqilobiy” g`oyalardan voz kechib, buning o`rniga inson huquqlari va erkinligi kabi go`yalarni ilgari surmoqda. Partiyalar faoliyatini belgilab beradigan ushbu mezonlar, o`z navbatida, Turkiyaning Yevropa Ittifoqi a`ziligiga tayyorligini ham belgilab beradi. Shu o`rinda, Turkiya siyosiy partiyalar faoliyati va o`ziga xos xususiyatlarini, shuningdek partiya oldida dolzarb bo`lgan, hamda Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a`zo bo`lishiga to`siq bolayotgan ba`zi masalarga to`xtalib o`tsak.

“Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi o`ng va so`l siyosiy partiyalar ilgari surayotgan g`oyalar, “sistema”, “davlat”, “rasmiy ideologiya” kabi umumiy tushunchalar emas, to`g`ridan to`g`ridan “shaxs”, “huquq”, “erkinlik”, “siyosiy aralashuv” kabi tushunchalardan iboratdir.”¹ Turkiyadagi siyosiy partiyalar , juda ko`p sonli² bo`lishiga qaramasdan, davlat tomonidan ilgari surilgan “rasmiy ideologiya” asosida faoliyat olib boradilar.

“Turkiyada ham siyosiy hayotni, ham ijtimoiy hayotni keskin shaklda qamragan o`ziga xos bir rasmiy ideologiya mavjuddir. Ta`lim tizimidan huquq sohasiga qadar jamiyatning hamma sohalarini qamragan rasmiy ideologiya, o`zida umumiy va turg`un xususiyatlarni jamlagan. ”

G`arb namunasidan farqli ravishda Turkiyadagi siyosiy partiyalar davlat mafkurasi asosida faoliyat dasturlarini belgilaydilar. Bundan tashqari Turkiya siyosiy partiyalarining taqqiqlanishi va uning huquqiy asosi G`arb namunasidan biroz farq qiladi. Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tishidan bugungi kunimizgacha yegirma oltita siyosiy partiya yopilgan . TBMM Tadqiqot Markazi tomonidan 15 Yevropa mamlakatlarida siyosiy partiyalar yopilish namunalariga qarab tayyorlangan qiyosiy tahlil natijalariga ko`ra, o`nbir davlatda partiyalar yopilishi umuman ko`zatilmasa, qolgan boshqa 4 davlatda bu hol juda o`z sodir bo`lgan.³

¹ Ömer Çaha. Türkiye’de siyasal partiler ve Arupa Birliği.- Ankara:Istanbul yayinlari, 2003, - S.33.

² 60 dan ortiq.

³ TBMM Araştırma Merkezi Raporu Sonuç Duyurusu: <http://www.meclishaber.gov.tr/develop>.

Ikkiinchi jahon urushidan so`ng, Germaniyada uchta, Ispaniyada bir siyosiy partiya yopilgan. G`arbiy Yevropada 1970-yillardan so`ng o`ng partiyalarning kutilmagan darajada ortishiga va 1980-1990- yillarada kuchayishiga qaramasdan, yopilgan partiyalar soni ortmagan. Turkiyada yopilgan siyosiy partiyalar sonining Yevropa davlatlaridan ko`pligi, shu bilan birga 2007-yilda Sotsial Demokratik Partiyaga va 2008- yilda Adolat Uyg`onish Partiyalarini yopish da`vosi ochilishi Turkiyadagi siyosiy partiyalar erkinligining bahsli mavzuga aylanishiga sabab bo`lmoqda.

“Yevropa Kengashi Parlamentining 2008 yil, 18-aprelda Adolat Uyg`onish partiyasini yopish da`vosiga aloqador bildirgisida, Turkiyada partiya yopish an`anasi mavjudligiga urg`u bergan va Yevropa Inson Huquqlari Maxkamasidagi 10-11-moddalarni eslatib harbir siyosiy-ijtimoiy qarashlarning siyosiy partiya tuzish huquqi borligini, hatto bu qarashning konstitutsion tuzumni o`zgartirish maqsadi bo`lsa agressiv harakat etmaguncha har bir mafkuraning siyosiy jarayonga qo`shilish erkinligi bo`lishi kerakligi ifoda etilgan.”¹

Turkiyaning geostrategik va etnomadaniy xususiyatlarini hisobga olib aytish mumkinki, demokratik qadriyatlar Turkiyada boshqa Sharq mamlakatlari qatori o`ziga xos tarzda shakllagan. “Sharqda demokratiya va fuqarolik jamiyatiga nisbatan o`ziga xos talqinlar mavjud. Bu odob axloq, madaniyat va huquqning uyg`unlashgan shakli bilan bog`liq.”² Demokratiya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uzoq muddatli jarayondir. Bu jarayon ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda muayyan darajada amalga oshirilgan. Lekin ana shu davlatlarda ham fuqarolik jamiyati mukammal barpo etilgan emas va uni rivojlanish jarayoni davom etmoqda.

Aslida ba`zi milliy, diniy va demografik xususiyatlari uchun, Yevropa Ittifoqiga a`zo bo`la olmayotgan Turkiya, g`arblashuv natijasida g`arbning ba`zi

¹ Avropa Komiyonu Parlamenter Meclisi (AKPM) Yazılı bildirge No: 409, Judicial proceedings against the Justice and Development Party in Turkey, 18 Nisan 2008. <http://assembly.coe.int>.

² B.Aliyev, A.Rahmonov. O`zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning yuksak natijalari, Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan.- Toshkent: O`zbekiston, 2011, B. 45-46.

qadriyatlarini qabul qilgan bo`lsada, biroq Sharq tamaddunining bir uzvi bo`lib qoladi. Davlat va jamiyat boshqaruvi ham ushbu xususiyatlardan kelib chiqadi.

II-bob bo`yicha xulosa

Turkiya siyosiy partiyalarini mafkuraviy tasnifi va uning muammolarini o`rganish asnosida mazkur xulosalar olindi.

Turkiyada tashkil topgan siyosiy partiyalari o`z dastur va nizomlarida avvalo Otaturkning inqolibiy g`oyalariga ko`ra, harakat etishlarini bayon etadilar. Undan so`ng, partiyaning tashkiliy tuzilishi, disiplini va falsafasi kabi xususlarda shiorlar ishlab chiqiladi. Bu nuqtadan harakat etganlari uchun, siyosiy partiyalar demokratiyada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy farqlilashuvni siyosiy arenaga olib chiquvchi tashkilot bo`lishlari talab etilar ekan, barcha partiyaning ayni qadriyatlarga urg`u beruvchi total g`oyalardan sug`orilishlari ma`lum bo`lmoqda. Bu ham partiyalarning G`arbda bo`lganidek, birbirlari bilan asosli ravishda kurashadigan dasturlar va siyosiy qarashlarning rivojiga to`sqinlik qiladi.

Turkiya siyosiy partiyalarining mafkuraviy manzarasi mamlakatning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, tashqi siyosiy faoliyatdagi muvaffaqiyat qaysidir ma`noda siyosiy partiyalar faoliyatiga bog`liqdir. Ma`lumki, Turkiya Yevropa ittifoqiga a`zo bo`lishga harakat qilib kelmoqda. Yevropa ittifoqiga a`zolik jarayoni iqtisodiy muammolarning hal etilishi bilan bog`liq bo`libgina qolmay, bevosita demokratiyaga erishish ham kutilgan holdir.

III bob. Turkiya siyosiy partiyalarining o`ziga xos xususiyatlari

1. Turkiyada siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy- huquqiy asoslari

Siyosiy partiyalar, biron bir dastur orqali siyosiy qarorlarni amalga oshirish maqsadida siyosiy hokimiyatni qo`lga kiritish uchun, tuzilgan tashkilotlardir.¹ Boshqa bir qarashga ko`ra, siyosiy partiyalar ma`lum bir hokimiyat davrini, yoki yanada ko`proq hokimiyatda turish uchun, siyosiy hokimiyatni qo`lga kiritishni va bundan olgan siyosiy kuchdan foydalanishni maqsad qilgan, buni amalga oshira olish uchun ham, xalqning qo`llab quvvatlanishini saylov yo`li bilan taminlashga harakat qilgan siyosiy tashkilotdir.² Fransuz siyatshunos olimlaridan F. Goguelga ko`ra, siyosiy partiya a`zolarining qarash va manfaatlarini amalga oshirish uchun, hokimiyatni qisman yoki tamoman qo`lga kiritish maqsadi bilan siyosiy hayotga qo`shilgan tashkiliy guruhdir.³

Turkiyaning 2820 sonli “Siyosiy partiyalar to`g`risida qonun”ga ko`ra, “Siyosiy partiyalar, Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq, deputatlik va mahalliy boshqaruv saylovlari yo`li bilan, nizom va dasturlarida ma`lum qilingan qarashlari to`g`risidagi faoliyatlari va oshkora propagandalari bilan milliy boshqaruvni tashkil etilishini ta`minlab demokratik davlat va jamiyat tartiboti ichida mamlakatning zamonaviy madaniyat saviyasiga yetishish maqsadini ko`zlagan va malakat miqyosida faoliyat ko`rsatish uchun tashkil topgan nizomga ega tashkilotdir.”⁴ Bu yerda diqqatga sazovor eng muhim jihat, siyosiy partiyalarning hokimiyatni qo`lga kiritish yoki, hech bo`lmasa uni boshqa partiyalar bilan baham ko`rish imkoniyatiga ega bo`lish maqsadidir. Barcha siyosiy partiyalarning mushtarak maqsadlariga asos bo`lgan bu jihat, ularni boshqa ijtimoiy guruhlardan, xususan siyosiy hokimiyatga ta`sir etishni xohlagan bosqinchi guruhlardan ajratishga yaragan eng asosiy mezonidir. Bu bilan birga boshqa mezon esa, ularning

¹ Ahmet Taner. Siyaset Bilimi.- Eskişehir: Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2004, S.127.

² Yararsoy Dursun. Temsili Demokrasinin Gelişiminde Siyasal Partiler Kavramı.- Ankara: websitem.gazi, 2000, S.58.

³ Yararsoy Dursun. Temsili Demokrasinin Gelişiminde Siyasal Partiler Kavramı.- Ankara: websitem.gazi, 2000, S.60.

⁴ Siyasi partiler kanuni. m.3. www.google.com.tr .

muvaqqat tuzilma bo`lmasdan, bardavom va mamlakat miqyosida nihoyatda yoyilgan tashkilot tuzilishiga ega ekanliklaridir.¹

Zamonaviy jamiyatlarda siyosiy partiyalar, demokratik hayotning va davlat tartibining voz kechilmaydigan unsuridir. Bu xusus Turkiya konstitutsiyasining 68-moddasida ham o`rin olgan. Demokratiyaning voz kechilmaydigan unsuri bo`lgan siyosiy partiyalar saylov natijasida aholisi millionlardan oshgan jamiyatlarda xalqning davlat boshqaruvida ishtirokini ta`minlaydi. Demokratiyalarda ko`ppartiyaviylik asosdir. Ammo, fashizm va sotsializm kabi totalitar rejimlarda siyosiy hokimiyat yagona siyosiy partiya bilan tashkil etilgan. Shuning uchun, bu kabi rejimlarga birpartiyaviylik, bifikrlilik asos bo`lib xizmat qiladi. Partiya butun jamiyat va davlat hayotini yo`naltiradi.

Turkiyada siyosiy partiyalar ikkinchi Mashrutiyat² davrida huquqiy tuzilma sifatida tashkil etilgan va 1961-yidagi konstitutsiyadan keyin huquqiy kafolatlangan. 1982-yilgi konstitutsiyada ham shu xususlar takrorlangan.³

Turkiyada maqsadi siyosiy hokimiyatni qo`lga kiritish bo`lgan siyosiy partiyalarning partiya tashkilotlari bosh rahbar, boshqaruv tuzilmasi, bosh idora tashkiloti, fraksiya, kabi markaz tashkilotlari bilan mahalliy tashkilotlardan tuzilar ekan, tashkilot tarkibida professional siyosatchilar, partiyaning qayd etilgan a`zolari va sempatizanlar o`rin egallaydi. Har siyosiy partiyaning siyosiy hokimiyatda ekan, ilgari suradigan bir partiya dasturi bo`ladi. Partiya dasturi mamlaktning istiqboli yo`lida qilinadigan ishlar, mavjud ichki va tashqi muammolarga va malakatdagi sharoitga muvofiq yechimlardan iborat bo`ladi. Turkiyda siyosiy partiyalarning konstitutsion kafolatlanishi 1961 yildagi konstitutsiya bilan boshlangan demokratik rivojlanish mahsulidir. Ikkinchi dunyo urushidan so`ng fashizmning tanazzuli bilan jadallashgan jarayondir. Dastlab, Siyosiy partiyalarni huquqiy muhofazalanishi Yevropada boshlangan. Germaniya va Italiya bu yo`lni ochib bergan, keyinchalik Fransiya, Turkiya, Avstriya,

¹ Kapani Münci. Politika Bilimine Giriş.- İstanbul: Bilgi Yayınevi, 1992, S. 160-161.

² 1876-yilda Usmonli imperiyasidagi huquq va konstitutsiya orqali boshqarilgan davr shunday nomlangan.

³ Yarasoy Dursun. Temsili Demokrasinin Gelişiminde Siyasal Partiler Kavramı.- Ankara: websitem.gazi, 2000, S.1.

Yunoniston, Portugaliya va Ispaniyada mazkur jarayon kuzatilgan. Yaqin davrda Sharqiy Yevropa mamlakatlari ushbu yo`lni bosib o`tdilar. Bu ma`noda Turkiya, Yevropada birinchi bo`lib siyosiy partiyalarning konstitutsion himoyalagan davlatlarlar qatorida joy olmoqda. 1961 yil konstitutsiyasi olib kelgan huquqiy muhofaza, nafaqat siyosiy partiyalarga huquqiy kafolat, balki tashkiliy asoslarini ham huquqiy jihatdan asoslagan. Mazkur konstitutsiyaning siyosiy partiyalarga aloqador hukmlari 56-57 moddalarida o`rin olgan. 56-moddada fuqarolarning “siyosiy partiyalar tashkil etish”, “siyosiy partiyalarga a`zo bo`lish” huquqlari shaxsiy va asosiy huquqlar sifatida kafolat ostiga olingan. Ayni moddaning ikkinchi va uchunchi bandlari siyosiy partiyalarning tashkiliy asoslariga bag`ishlangan. Moddaning ikkinchi bandiga ko`ra “siyosiy partiyalar oldindan ruxsat olmasdan tashkil etiladi va erkin faoliyat olib boradilar.” Mazkur moddaning uchunchi bandida qo`ydagi fikrlar bayon etilgan.

“Siyosiy partiyalar, xoh hokimiyatda bo`lsin, xoh muxolifatda, demokratik siyosiy hayotning voz kechilmaydigan unsurlaridandir.”

Ushbu qoida “partiyalar demokratiyasi” sifatida nomlangan va bugun Yevropada tobora yoyilgan ma`lum demokratik tushunchaning ham aniq bir ifodasi bo`lib ko`rinadi. Moddaga 1971 yildagi o`zgartirish bilan qo`shilgan to`rtinchi band orqali partiyalarga davlatning molyaviy yordami konstitutsion kafolatlangan. 1961yildagi konstitutsiyaning 57-modda, 1-bandida partiya cheklovlari bir band orqali ifodalangan. “Siyosiy partiyalarning nizomlari, programmaları va faoliyatlari, inson haq va hurriyatlarga asoslangan bo`lishi, demokratik va sekulyar jumhuriyat g`oyalariga tayangan, davlat bilan millatning bir butunligi kabi tamoyillarga bo`ysunishi lozim. Bularga uyg`un bo`lmagan partiyalar asosli ravishda taqiqlanadi.”¹ Bu ma`noda partiyalarning taqiqlanishi va demokratiya bilan bog`liqligi jihatidan muhim bo`lgan nuqta “erkinlikning asosiy tamoyil sifatida muhofaza etilishi va taqiqlarni ham ushbu tamoyilga xizmat qiladigan me`yor sifatida mavjud bo`lishi ” dir. 1961-yilgi konstitutsiya yuqorida ifoda etilgan moddalar bilan partiyalar faoliyatining nozik jihatlarini ham

¹ Saġlam Fazil, Siyasal Partiler Hukukunun Gncel Sorunları.- İstanbul: Beta Yayınları, 1999, -S.1.

muhofaza ostiga olgan. 1980 yildagi harbiy to'ntarishdan so'ng qabul etilgan 1982 yilgi konstitutsiyada ham siyosiy partiyalar konstitutsion tuzulma sifatida tartibga solingan va maxsus himoya soyasiga olingan. 1982 yil konstitutsiyasida siyosiy partiyalarga oid hukmlar 68-69- moddalarda o'z ifodasini topgan. 1995 va 2001-yilgi o'zgarishlardan oldin konstitutsiyaga mavjud siyosiy partiyalarga tegishli hukmlarni oldingi konstitutsiya bilan qiyoslaganimizda ilk ko'zimizga tushadigan nuqta cheklovchi va taqiqlovchi hukmlarning ko'pligidir.

Diqqatga sazovor ikkinchi nuqta esa, 1982 yilgi konstitutsiyada ham siyosiy partiyalarga aloqador ikki modda mavjud bo'lsada, bu moddalarda oldingi konstitutsiyadagi sestematik butunlikning bo'linishidir. 1961-yilgi konstitutsiyada partiya a'zo bo'lish layoqat yoshi 21 bo'lsa, 1982-yilgi konstitutsiyada 18 yosh etib belgilangan.¹

Turkiya konstitutsiyasi va qonunlariga ko'ra siyosiy partiyalar, qonunlarga muvofiq deputatlik va boshqaruv saylovlari orqali mafkura va faoliyat dasturlari yordamida milliy boshqaruvni tashkil etilishini ta'minlab demokratik davlat va jamiyat qurilishi asnosida mamlakatning zamonaviy madaniyatga erishish maqsadini ko'zlagan, hamda mamlakat miqyosida faoliyat olib borish kabi tashkiliy tuzilishga ega tashkilotdir.² Siyosiy partiyalar demokratik siyosiy hayotning voz kechib bo'lmaydigan unsurlaridandir. Siyosiy partiyalarning tashkil etilishi, faoliyat va dasturlari konstitutsiyaga belgilangan demokratik tamoyillarga muvofiq bolishi kerak.³ Turkiyada fuqarolar siyosiy partiya tashkil etish va siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, shuningdek, xohlagan onda a'zolikdan voz kechish huquqiga ega. Bir fuqaro ayni paytda ikki siyosiy partiyaga a'z o bo'la olmaydi. Aks holda a'zolik ikki siyosiy partiyada ham tugatiladi.

Turkiyada siyosiy partiyalarni tashkil etish 2003 yilgacha deputatlikga saylanish layoqatiga ega kamida 30 fuqaro tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lgan. 2003 yilgi qonun o'zgarishidan so'ng, siyosiy partiyaga a'zo bo'lish

¹Sağlam Fazıl, Siyasal Partiler Hukukunun Güncel Sorunları.- İstanbul: Beta Yayınları, 1999, - S 10.

² Siyasi partiler kanuni.. 3-modda.google.com.tr

³ Siyasi partiler kanuni.. 4-modda.google.com.tr

qobiliyatiga ega kamida 30 Turkiya fuqarosi tomonidan tashkil etish huquqi berildi. Siyosiy partiyalarning markazi Anqarada bo'lishi kerak. Siyosiy partiyalar belgilangan ma'lumot va hujjatlarni o'z ichiga olgan bayonotni Ichki Ishlar Vazirligiga taqdim etish orqali tashkil etiladi. Xo'sh, ushbu hujjat va ma'lumotlar nimalardan iborat? Bayonotda tashkil etiladigan siyosiy partiyaning nomi markaziy idora manzili, tashkil etuvchilarning ism-sharifi, tug'lgan joyi va yili, ma'lumoti, lavozim va kasblari, turar-joylari ma'lum qilinadi, hamda barcha tashkilotchilar tomonidan imzolanadi. Shuningdek tashkilotchilarning shaxsiy hujjatlari va Siyosiy partiya nizomi va daturi ilova qilinadi. Hujjatlar qabul qilingandan so'ng, tilxat beriladi. Ichki Ishlar Vazirligi hujjatlarni o'rganib chiqib Mamlakat bosh prokraturasi va konstitutsiyaviy sudga taqdim etadi.

Siyosiy partiyalar Turkiyadagi demokratik hayot va ko'pfikrlilikning voz kechib bo'lmas, ajralmas bir qismidir. Turkiydagi amaldagi qonunchilikka ko'ra siyosiy partiyalar oldindan maxsus ruxsat olmasdan tashkil etiladi. Deputat etib saylanish uchun qo'yilgan shartlarga javob beradigan eng kami 30 tasischi tomonidan tuzilgan partiyaning partiyaning ichki ishlar vazirligiga bildirilishi, bu partiyaning yuridik shaxs sifatida hisoblanishi uchun yetarlidir. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini Konstitutsiya va qonunlar doirasida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalarning nizomlari, dasturlari va faoliyatlari davlat mustaqilligi va butunligi, inson huquqlari va erkinliklariga, huquqiy davlat tamoyillariga, demokratiya va suveren respublika tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak. Ular biror sinf diktaturasi yoki biron bir hukmronlikni himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ya olmaydi. Jinoyi faoliyatni tashviq etishga haqli emaslar. Bu xususlarga zid faoliyat olib borgan sirosiy partiyalar yopib qo'yiladi. Shuningdek, xorijiy tashkilot yoki Turkiya fuqarosi bo'lmagan shaxslardan yordam olgan siyosiy partiyalar ham yopib qo'yiladi. Siyosiy partiyalarining yopilishi uchun prokratura da'vosi bilan Konstitutsion Sud tomonidan hukm qilinadi. Bu qaror hal qiluvchi bo'lib, yopilgan partiyalar shu nom bilan qayta tashkil etiladi.

2. Turkiyada siyosiy partiyalarning iqtisodiy-molyaviy manbalari

Siyosiy partiyalar bardavom faoliyat olib borishga mo`ljallangan tashkilot hisoblanadi. O`z mavjudiyatlarini davom ettira olishlari uchun kuchli tashkiliy asosga ega bo`lishlari talab etiladi. Partiyaning tashkiliy asosi deganda avvalo bino, faoliyat vositalari va shaxslar ko`z oldimizda gavdalanadi. Bularning barchasi moddiy manbaga tayanadi. Bularning yoniga saylov kampaniyalarining tashkiliy va targ`bot xarajatlarini qo`shadigan bo`lsak, pul va moliyaviy manbalarning siyosiy partiyalar uchun nechog`lik kerak bo`lishiga shubha qolmaydi. Qisqacha qilib aytadigan bo`lsak, partiyalar uchun hosil mavsumi bo`lgan saylovlar katta mablag` talab etiladi.

So`ngi 25-30 yilichida birqancha g`arb demokratiyalarida siyosiy partiyalarning molyaviy ishlarini tartibga solish masalasida nihoyatda keng harakatlar kuzatilmoqda. Bu harakatlar bir tarafdin siyosiy partiyalarga davlat tomonidan molyaviy yordam berilishini, boshqa tarafdin siyosiy partiyalar xarajatlarini, xususan saylov sarflarining chegaralashni ko`zda tutmoqda. Siyosiy partiyalarga davlat yordami berilishining asosiy sababi, partiyalarning o`z faoliyat xususiyatlari bilan jamoat foydasi uchun ishlaydigan tashkilot bo`lganliklari va davlat yordamining yanabir maqsadi partiyalarning molyaviy nuqtai nazardan kuchli kishi va tashkilotlarga judaham tobe` bo`lishlaridadan qutqarishdir. Bu ikki sabab, Turkiya Konstitutsion Sudining ba`zi qarorlarida ham ifoda etilgan. "...demokratik siyosiy hayotning voz kechib bo`lmaydigan unsuri sifatida baholangan siyosiy partiyalar bir ijtimoiy guruh yoki shunga o`xshash tashkilot hisoblanmasdan, balki ulardan yuqori baholangan. Siyosiy partiyalar xalq demokratiyasi maydonida yetishishi va demokratiyaning mavjudlik vositasi ekanligi ko`zda tutilsa, siyosiy partiyalar xalq foydasi uchun xizmat qilishi ma`lum bo`ladi."¹ Bu sababdan, so`ngi yillarda partiyalarga davlat yordami bir qancha g`arb davlatlarda qabul qilingan. Germaniyada davlat yordami 1959-yilda partiyalarning federal parlamentdagi kuchlari bo`lishi sharti bilan boshlangan.

¹ Saqlam Fazil, Siyasal Partiler Hukukunun Guncel Sorunlari.- Istanbul: Beta Yayinlari, 1999, S. 23-29.

1967-yilda “Siyosiy partiyalar to`g`risidagi qonun” bilan kafolatlangan. Siyosiy partiyalarga davlatning yordami Shevetsariyada 1965-yilda, 1973-yilda Isroilda , 1974-yilda Kanada va Italiyada boshlangan.

Turkiyada amaldagi qonun hujjatlariga ko`ra, siyosiy partiyaga davlat yordami berilishi uchun, qo`ydgagi ifoda etilgan shartlarni bajarishi kerak.

a) Bosh byudjet daromadlarining belgilangan miqdordagi hissasini to`langan bo`linishi;

b) Oliy saylov Komessiyasiga ko`ra, oxirgi deputatlik saylovlariga qo`shilish huquqiga ega va 10%lik baraj tizimiga muvofiq kelishi;

c) Asosiy deputatlik saylovlarida 10% ovoz olmagan bo`lsa ham, yalpi ovozning 7%ni olgan bo`lishi;

Amalga oshirilgan yordam miqdorining bu yordamdan foydalanabiladigan siyosiy partiyalarga deputatlik saylovlarining bo`ladigan yilida uch baravari, mahalliy boshqaruv saylovi yilida ikki baravari miqdorida bo`ladi. Turkiyada siyosiy partiyalar o`z moliyaviy ihtiyojlarini qo`ydgagi asoslar orqali amalga oshiriladilar.

1)*A`zolik badallari:* Partiya a`zolaridan olinadigan a`zolik to`lovining miqdori partiya nizomida ko`rsatiladi. Har bir a`zo oylik yoki yillik shaklda to`lov to`lashga a`zo bo`lish vaqtida rozi bo`ladi. Partiya a`zosi berishga rozi bo`lgan to`lovning miqdori, partiya nizomiga muvofiq, partiya rahbari nomiga yoziladigan rozilik arizasida ko`rsatladi.¹ Turkiyadagi siyosiy partiyalar faoliyatiga oid huquqi me`yorglarga ko`ra, a`zolik badali partiya a`zolaridan olinishi , maxsus badal esa, deputatlar hamda saylovlarda qatnashgan nomzodlardan olinishi belgilab qo`yilgan.

2)*Deputatlik to`lovi:* Bir syosiy partiyaga mansub deputatlarning qancha to`lov to`lashlari va bu suratda yig`ilgan mablag`ning qancha qismi partiyaning markaziy tuzilmalariga qancha miqdorda ajratilishi parlamentdagi partiya fraksiyasining qarori bilan ma`lum etiladi.

3) *Maxsus shaxs va tashkilotlardan keladigan xayriya mablag`lari :* Turli tashkilotlar va jismoniy shaxslardan partiyaga beriladigan molyaviy yordam

¹ 62-modda

mablag`lari qonunga belgilangan tartibda nazorat etiladi.

4) *Partiyaning o`z molyaviy manbalaridan keladigan mablag`lar* (flama, nashrlar, partiya simboli, a`zolik guvohnomalarini sotishdan keladigan mablag`lar).

5. Xalqaro tashkilotlardan keladigan homiylik mablag`lari: Mamlakatdagi demokratik rivojlanish va fuqarolar erkinligi himoya etuvchi tashkilotlarning moddiy yordamlari ham, partiyalarning moddiy ehtiyojlari uchun muhimdir.

6. *Davlat tomonidan beriladigan byudjet yordami* : Siyosiy partiyalarga davlat tomonidan yordam berilishi partiya ehtiyojlarini qondirish va faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini oshirish uchun, ilk marta 1965-yildagi konstitutsiya orqali huquqiy asosga ega bo`lgan. 1971 yilgi konstitutsiya bilan takomillashtirilgan. Bunga ko`ra, mamlakat miqyosida 5% ovoz olgan va parlamentda o`z fraksiyasiga ega bo`lgan siyosiy partiya davlat tomonidan moddiy yordam beriladi. Turkiya siyosiy partiyalarning molyaviy xarajatlarning yarmi davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalarga davlat tomonidan beriladigan yordamning konstitutsion asosi 1961 yilgi konstitutsiya va 1971-yilda unga kiritilgan o`zgartirishlar bilan 56-moddada o`z ifodasini topgan. Dastlab 1982-yilgi konstitutsiyada mazkur hukm o`z ifodasini topmagan edi. 1995-yilda konstitutsiyaning 68-moddasida ushbu band qo`shildi.

“Siyosiy partiyalarga davlat yetarli tarzda va haqqoniylik bilan moddiy yordam beradi. Partiyalarga beriladigan yordamning va boshqa molyaviy manbalar qonun bilan tartibga solinadi.”

Turkiya siyosiy partiyalarning daromad manbalari 1961 yildagi konstitutsiya bilan huquqiy tartibga solingan. 1982 yildagi konstitutsiyada ba`zi moddalardagi o`zgarishlar bilan takomillashtirilgan. Siyosiy partiyalarning daromad va sarf-xarajatlari konstitutsiyaviy sud tomonidan nazorat qilinadi. Konstitutsiyaviy sud partiyalar tomonidan berilgan hisobotlarga va mavjud to`plangan ma`lumotlarga binoan siyosiy partiyalarning molyaviy jadvalini ishlab chiqadi. Lekin bu ma`lumotlar hardam ham to`g`ri bo`lmaydi. Mahaliy va joylardagi partiyalar

bo`limlariga keladigan daromad va xarajatlar ko`pincha nazoratdan chetda qoladi. Turkiya siyosiy partiyalarining faoliyatlarini tashkil etishlarida byudjet tomonidan beriladigan yordam muhim o`rin tutadi. Qo`yida yuqorida fikr yuritganimiz siyosiy partiyalarning molyaviy asoslarini ba`zi siyosiy partiyalar faoliyati misolida ko`rib chiqamiz. Siyosiy partiyalarning 1983-1998 –yillardagi molyaviy faoliyatlarini ko`rib chiqamiz.

Onavatan Partiyasi: Saylov yillarida va 1998-yildan tashqari Onavatan partiyasining asosan byudjet yordami va bosh markaz daromadlarining ortishi nomutanosib shaklda bo`lgan. Partiyaning bosh markaz daromadlari tahlil etilganda byudjet yordami 57%ni tashkil etgan. Shuning uchun ham bu partiya hazina(byudjet) partiyasi sifatida baholangan. Agar byudjet yordamlari 1984-yilda 60% tashkil etgan bo`lsa, bu daraja 1991-1997-yillarda 65%ni tashkil etgan. 1995-yilga kelib 77%ga yetgan.

Buyuk birlik partiyasi: Turkiya parlamentida o`rin egallaganidan so`ng, BBP hazina partiyasi sifatida faoliyat olib borgan. Xususan 1995-yildan so`ng partiyaning xazina yordamiga bo`g`liqligi ortgan. Partiyaning molyaviy manbalari tahlil etilganda xazina yordami 88%ni tashkil etgan. 1994-1998-yillarda xazina yordami 90% ni tashkil etgani ushbu siyosiy partiyaning faoliyati asosan davlat tomonidan molyalashtirilganiga guvoh bo`lamiz.

To`g`ri yo`l partiyasi: Markaziy o`ng partiya sanalgan TYP , siyosiy sahnaga kirishi paytida an`anaga ko`ra, molyaviy manbalarining 70% bag`ishlar tashkil etgan bo`lsa, qolgan 30 partiyani tashkil etgan a`zolar hisobiga to`g`ri keladi. 1992-yildan so`ng, partiyaga xazina yordamlarining miqdori ortgan. Bu paytga kelib Partiya daromadlarining 86%ni xazina yordamlari tashkil etgan. Mazkur partiya boshqa partiyalardan farqli ravishda yetti yil mobaynida o`z molyaviy ihtiyojlarini bag`ishlar hisobiga amalga oshirgan. 1984-yildan boshlab xazina yordamlarini olgan bo`lsa ham, 1983-1989 – yillarda bag`ishlar 73%ni tashkil etgan bo`lsa, xazina yordamlari 27%ni tashkil etgan.

Milliyatchi harakat partiyasi: 1992-yildan boshlab MHP nomi bilan faoliyat boshlagan partiya faoliyatiga ham xazina yordami muhim o`rin tutgan. 1995-

yildan boshlab xazina yordamlarining darajalari orta boshlagan. 1993-1998-yillarda molyaviy daromadlarning 71% xazina yordamlariga to'g'ri keladi. Shu bois xazina yordamiga murojat etish bo'yicha buyuk birlik partiyasidan so'ng mazkur partiya ikkinchi o'ringa turadi.

Refah partiyasi: 1995-yildan song partiyaga xazina yordami sezilarli darajada ortgan. Markaziy va viloyatlardagi daromad oqimidan tashqari hazina yordamlari yalpi daromadning 30% tashkil etgan. 1990-yillarda xazina yordamlari partiyaning markaziy daromadlariga nisbatan 90%ni tashkil etgan.

Turkiyada siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini davom ettira olishlari uchun, mustahkam molyaviy asosga ihtiyojmanddirlar. Partiyalarning asosiy iqtisodiy maqnbalari bu davlat tomonidn beriladigan yordamdir. Biroq, bu yordam saylov natijalariga qarab beriladi. Davlat tomonidan beriladigan yordam partiyalar faoliyatining bardavomiyligini ta'minlashi bilan bir qatorda davlatning partiyalar ustidagi nazoratini ta'minlaydi.

3.O'zbekiston va Turkiyada ko'ppartiyaviylik tizimining o'ziga xos xususiyatlari: qiyosiy tahlil

Siyosiy madaniyatning plyuralistik turi quyidagi muhim shart-sharoitlar yaratilganidagina paydo bo'lishi, rivojlanishi, faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, ustuvorlik kasb etishi mumkin:

1) Iqtisodiy va ijtimoiy hayot plyuralizmi sohasida - mulkchilikning turli shakllari, eng avvalo xususiy mulkchilik paydo bo'lishi, xo'jalik yuritishning turli usullarining amal qilishi;

2) Jamiyat o'z ijtimoiy strukturasi va turli manfaatlari bo'yicha qanchalik rang-barang bo'lsa, siyosiy plyuralizm va siyosiy madaniyat shakllanishi uchun shunchalik ko'proq zamin paydo bo'ladi.

3) Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ustuvorligini ta'minlash sohasida - fuqarolik jamiyati siyosiy institutlarining shakllanishi; davlat hokimiyatini shakllantirish asosan saylovlar vositasida amalga oshishi, hech kim, hech bir

guruhning bu hokimiyatni na amalda, na huquqiy jihatlardan o'z monopoliyasiga aylantirishiga yo'l qo'ymaslik;

4) Guruhlar va ularning vakillari bo'lgan siyosiy partiyalar va harakatlar o'rtasida ijtimoiy rivojlanishning asosiy qadriyatlari, ideallari va maqsadlariga nisbatan aniq kelishuvlarning mavjudligi;

5) Ham huquqiy jihatlardan, ham hayotda shaxs erkinligining ta'minlanganligi.

Demokratlashtirish jarayonini chuqurlashtirish jamiyatdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari Islom Karimov bunga quyidagi yo'l bilan erishish mumkinligini ta'kidlaydi: "Shunga erishish kerakki, mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim".

Turkiya respublikasi tashkil topgandan so'ng, dastlab bir partiyaviylik tizimi barqaror bo'lgan, biroq jumhuriyat asoschisi Mustafo kamol Otaturk, demokratik tuzum o'rnatish maqsadi tufayli, ko'ppartiyaviylik tizimiga xayrixoh bo'lgan. Uning mazkur xitobi, fikrimizni tasdiqlaydi.

“Qo'yinglar qarshimizga chiqishsin davlat ishlarini muhokama qilaylik” yoki - “Bizning parlamentdahan ikki partiya bo'lishi kerak,.... madaniy mamlakatlar parlamentlariga o'xshashimiz kerak.”¹

Ko'ppartiyaviylik deganda bir qancha partiyaning jamiyat hayotida faol ishtiroki tushuniladi. Partiyalar parlament ishida o'z vakillari orqali ishtirok etib, qonunlar qabul qiladi va ularni hayotga tatbiq etish borasida faollik ko'rsatadi.

¹ Şahin, Atacan. Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları.- İstanbul: Beta Yayınları, 2011, S. 12.

Boshqacha aytganda, ko'ppartiyaviylik turli manfaatlar, xiltana-xil kuchlar o'rtasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy omildir.

O'zbekiston «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunida jumladan bunday deyilgan: «Siyosiy partiya - qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir».

Turkiya “Siyosiy partiyalar to'g'risida qonun”ga ko'ra, “Siyosiy partiyalar, Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq, deputatlik va mahalliy boshqaruv saylovlari yo'li bilan, nizom va dasturlarida ma'lum qilingan qarashlari to'g'risidagi faoliyatlari va oshkora propagandalari bilan milliy boshqaruvni tashkil etilishini ta'minlab demokratik davlat va jamiyat tartiboti ichida mamlakatning zamonaviy madaniyat saviyasiga yetishish maqsadini ko'zlagan va malakat miqyosida faoliyat ko'rsatish uchun tashkil topgan nizomga ega tashkilotdir.”¹

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida 5 ta siyosiy partiya mavjud bo'lgan. Bular: Xalq demokratik partiyasi (XDP) 1991- yil 1- noyabrda tashkil etilgan; Adolat sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) 1995- yil 18- fevralda tashkil topgan; Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP) 1995- yil 3- iyunda tashkil topgan; «Fidokorlar milliy demokratik partiyasi (FMDP) 1998- yil 28-dekabrda, Liberal demokratik partiyasi esa (LDP) 2003- yil 15-noyabrda tashkil topgan. Bundan tashqari «Xalq birligi» (1995- yil) jamoatchilik harakati faoliyat ko'rsatmoqda. Bu siyosiy tashkilotlarning jamiyatda tutgan o'rnini va mehnatkashlar ommasi o'rtasidagi obro'-e'tibori ular ishlab chiqqan va amal qilayotgan dasturlarning nechog'lik xalq ommasi istak va intilishlarini ifoda etganligi va mazkur siyosiy partiyalarning qay darajada hokimiyatga hamda o'zaro bir-birlari bilan muxolifatga aylanganliklariga bog'liqdir.

Turkiyada ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tilgandan so'ng, yuzga yaqin siyosiy partiyalar tashkil topgan. Ketma-ket amalga oshirilgan davlat to'ntarishlari va

¹ Siyasi partiler kanuni. m.3- Ankara.:www.google.com.tr, 2000.

taqiblar tufayli, shuningdek baʼzi mafkuraviy va tashkiliy muammolar tufayli koʻpgina siyosiy partiyalar yopilgan yoki boshqa partiyalar bilan qoʻshilgan.

Turkiya va Oʻzbekiston siyosiy partiyalari qiyosiy tahlil qilinar ekan qoʻyidagi xususlarga eʼtibor qaratish tadqiqot maqsadiga muvofiqdir.

a)Partiyalarning tashkiliy xususiyatlari: Oʻzbekiston mustaqilligining oʻtgan davri mobaynida fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, siyosiy partiyalar demokratik jarayonlarda erkin va faol ishtirok etishi uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar yaratildi. Maʼlumki, qonunchilikka muvofiq, siyosiy partiya Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini roʻyobga chiqarishga intiluvchi hamda oʻz vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi koʻngilli birlashmadir. Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlarini taʼminlash bilan bogʻliq xalqaro tajriba tarixiga nazar tashlasak, oʻtgan asrning 50-yillariga kelib Germaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida siyosiy partiyalar toʻgʻrisidagi ilk qoidalar oʻz aksini topganini koʻramiz. Keyinchalik konstitutsiyalarda belgilangan meʼyorlarni mustahkamlaydigan va rivojlantiradigan siyosiy partiyalar faoliyati toʻgʻrisidagi alohida qonunlar qabul qilina boshladi. Xususan, bunday qonunlar Germaniyada (1967 yil), Portugaliyada (1974 yil), Avstriyada (1975 yil), Ispaniyada (1978 yil) va boshqa mamlakatlarda qabul qilindi. Taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda ham siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi huquqiy asoslari shakllandi. Siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirishdagi rolini kuchaytirish maqsadida konstitutsiyaviy qonun, bir necha qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga binoan siyosiy partiyalar «jamoat birlashmalari» sifatida eʼtirof etiladi. Bosh Qomusimizning 58-moddasi bilan esa davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga yoʻl qoʻyilmasligi haqidagi Konstitutsiyaviy meʼyor joriy qilingan. Siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi Konstitutsiyamizning 60-moddasida ifodasini

topgan. Unga ko'ra, siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadi. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

«O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonun qabul qilinishi mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyati yo'lga qo'yilishida muhim huquqiy asos bo'ldi. 1996 yil 12 dekabrda bevosita siyosiy partiya tushunchasi, faoliyatining huquqiy asoslari, faoliyat ko'rsatish prinsiplari, huquqlari va ular faoliyatiga tegishli boshqa me'yorlarni belgilagan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, shuningdek, 2004 yil 30 aprelda siyosiy partiyalarni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Qonunchilikka muvofiq, ikki palatali parlamentning shakllantirilishi va Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqining siyosiy partiyalarga berilishi siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat qurilishidagi o'рни va rolini oshirishga sharoit yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda siyosiy partiyalar davlat organlari shakllanishi, ayni paytda, faoliyati demokratlashishi jarayonida faol ishtirok etmoqda. Bunda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun, shuningdek, Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyzzatini rivojlantirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilib, qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida(78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)»gi qonun orqali joriy qilingan me'yorlarni hayotga izchil tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiyada ham siyosiy partiyalarning tashkiliy asoslari qonun bilan kafolatlangan. Turkiya konstitutsiyasining siyosiy partiyalarga aloqador hukmlari 56-57 moddalarida o`rin olgan. 56-moddada fuqarolarning “siyosiy partiyalar tashkil etish”, “siyosiy partiyalarga a`zo bo`lish” huquqlari shaxsiy va asosiy

huquqlar sifatida kafolat ostiga olingan. Ayni moddaning ikkinchi va uchunchi bndlari siyosiy partiyalarning tashkiliy asoslariga bag`ishlangan. Moddaning ikkinchi bandiga ko`ra “siyosiy partiyalar oldindan ruxsat olmasdan tashkil etiladi va erkin faoliyat olib boradilar.” Mazkur moddaning uchunchi bandida qo`ydagi fikrlar bayon etilgan.

“Siyosiy partiyalar, xoh hokimiyatda bo`lsin, xoh muxolifatda, demokratik siyosiy hayotning voz kechilmaydigan unsurlaridandir.”

b) Siyosiy partiyalarning vakolatlari va parlamentdagi ishtiroklari: O`zbekiston «Siyosiy partiyalar to`g`risida»gi qonunining 13-moddasida siyosiy partiyalar Respublika Oliy Majlisiga saylangan o`z vakillari ishtirokida alohida fraksiyaga uyushish huquqiga ega ekanliklari ham aniq va ravshan belgilab qo`yilgan. Partiyaviy fraksiyalar har bir partiya fraksiyasi rahbarining bergan tegishli arizasi va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlis tomonidan ro`yxatga olinadi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi siyosiy partiya fraksiyasi qonunda ko`zda tutilgan quyidagi huquqlardan foydalandi:

- sessiya kun tartibini tuzishda ishtirok etish;
- sessiya kun tartibidagi har bir masala bo`yicha muzokarlarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so`z berilishi;
- tegishli ravishda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisiga va O`zbekiston Respublikasi Hukumatiga, vazirlarga, davlat organlarining boshqa rahbarlariga so`rovlar bilan murojaat etish;
- Oliy Majlis rahbarligiga, qo`mita va komissiyalar raisligiga nomzodlar bo`yicha takliflar kiritish;
- sessiyada muhokama qilinayotgan masala bo`yicha fraksiya fikrini deputatlar orasida tarqatish;
- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizning 98-moddasiga «O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi» degan qoida kiritildi. Demak, Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan saylov jarayonida qaysi siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlari va ularda belgilangan maqsad va vazifalar saylovchilar tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlansa, quyi palatada eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya hukumat rahbari, ya'ni Bosh vazir nomzodini taklif etish orqali o'z dasturlari ijrosini ta'minlash imkoniga ega bo'ldi. Bu mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida siyosiy partiyalar faoliyatining bevosita ta'siri kuchaytirilganligidan dalolatdir. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalariga Bosh vazirni iste'foga chiqarish, xalq deputatlari mahalliy Kengashlardagi deputatlik guruhlariga esa viloyat hokimlarini iste'foga chiqarish to'g'risida tashabbus bilan chiqish huquqining berilishi siyosiy partiyalarning mamlakat hayotidagi ta'sir kuchi yanada ortishiga qulay sharoit yaratib berilganini ko'rsatmoqda.

O'tgan davr mobaynida siyosiy partiyalar faoliyatiga aloqador bir necha qonunosti hujjatlari ham qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida»gi, «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori shular jumlasidandir. Amalga oshirilayotgan ushbu siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning huquqiy kafolati mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab

qo'yilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, demokratik tamoyillar asosida faoliyat yurituvchi siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi mavqei oshib borishi mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi ham shu yo'ldan borishni o'z taraqqiyotining asosiy mezonini qilib olgan va bu borada amaliy qadamlar qo'yimoqda. Albatta, siyosiy partiyalar jamiyatda amal qilishlari lozim bo'lgan huquqiy maqomlarni bilmasalar harakat dasturlari nechog'lik oliyjanob bo'lmasin, uni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 25- dekabrda qabul qilgan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun katta ahamiyat kasb etadi. Unda ko'ppartiyaviylikning asosiy mezonlari, siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari har tomonlama ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalar huquqlarining aniq belgilab berilganligi hayotiy ahamiyat kasb etadi:

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

- saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish; qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq(blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish.

c) Siyosiy partiyalar dasturlari va mafkuraviy xususiyatlari: Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlarida nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin. Albatta siyosiy partiyalar o'z harakat dasturlari asosida xilma-xil qarashlarni ilgari suradilar va rivojlangan huquqiy demokratik jamiyatni barpo qilishga hissa qo'shadilar. Ammo siyosiy partiyalar milliy istiqlol mafkurasi tamoyillarini o'z harakatlarining bosh mezoniga aylantirmoqlari lozim. Milliy istiqlol g'oyasiga zid dasturni ilgari suruvchi partiyalar faoliyatiga yo'l qo'yish mumkin emas. «...Xalq manfaatlari, istiqlol g'oyalari qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir».¹ Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida ko'zda tutilgan masalalar diqqatga loyiq. Unda quyidagilar aniq-ravshan yozib qo'yilgan: «Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi».

Turkiyada tashkil topgan siyosiy partiyalari o'z dastur va nizomlarida avvalo Otaturkning inqolibiy g'oyalariga ko'ra, harakat etishlarini bayon etadilar. Undan so'ng, partiyaning tashkiliy tuzilishi, disiplini va falsafasi kabi xususlarda shiorlar ishlab chiqiladi. 1961yildagi konstitutsiyaning 57-modda, 1-bandida partiya cheklolari bir band orqali ifodalangan. "Siyosiy partiyalarning nizomlari, programmaları va faoliyatlari, inson haq va hurriyatlarga asoslangan bo'lishi, demokratik va sekulyar jumhuriyat g'oyalariga tayangan, davlat bilan millatning bir butunligi kabi tamoyillarga bo'ysunishi lozim. Bularga uyg'un bo'lmagan partiyalar asosli ravishda taqiqlanadi."² Ma'lum bo'lmoqdaki, siyosiy partiyalar

¹ Nazarov.Q .Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar-T:O'zbekiston, 2000, - B. 25.

² Sağlam Fazıl. Siyasal Partiler Hukukunun Güncel Sorunları.-Beta Yayınları: İstanbul , 1999, S.1.

o`z dasturlarini davlatning rasmiy eideologiyasi asosida belgilaydilar. Bu xususiyat ko`pgina demokratik sharq davlatlariga xosdir.

III bob bo`yicha xulosa

Turkiya siyosiy partiyalarining tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek iqtisodiy-molyaviy manbalarini tadqiq etib, mazkur xulosalar hosil qilindi.

Birinchiidan, Turkiya siyosiy partiyalarining tashkiliy-huquqiy asoslari Turkiya konstitutsiyasi va 1965-yildagi “Siyosiy partiyalar to`g`risidagi” qonunga asoslanadi. Siyosiy partiyalar faoliyati Konstitutsion Sud tomonidan nazorat qilinadi.

Ikkinchiidan, Turkiyadagi siyosiy partiyalar o`z mavjudliklarini saqlab qolishlari uchun, mustahkam molyaviy manbaga ega bo`lishlari kerak. Molyaviy xarajatlar asosan davlat tomonidan beriladigan xazina yordami orqali amalga oshiriladi. Turkiyada amaldagi qonun hujjatlariga ko`ra, siyosiy partiyaga davlat yordami berilishi uchun, qo`ydagi ifoda etilgan shartlarni bajarishi kerak.

- Bosh byudjet daromadlarining belgilangan miqdordagi hissasini to`langan bo`linishi;

- Oliy saylov Komessiyasiga ko`ra, oxirgi deputatlik saylovlariga qo`shilish huquqiga ega va 10%lik baraj tizimiga muvofiq kelishi;

- Asosiy deputatlik saylovlarida 10% ovoz olmagan bo`lsa ham, yalpi ovozning 7%ni olgan bo`lishi;

Demak, Turkiya siyosiy partiyalari nafaqat hukumat tuzishda o`z so`zi bilan qatnashish huquqi uchun balki, davlat tomonidan beriladigan xazina yordami uchun ham kurashadilar.

Uchunchidan, Turkiya respublikasida amalga oshirilgan davlat to`ntarilishlari siyosiy partiyalar faoliyatiga ham ta`sir o`tkazgan. 1982-yildagi konstitutsiya va siyosiy partiyalar to`g`risidagi qonunga kiritilgan o`zgarishlar buning isbotidir. Taqiqlangan va yopilgan siyosiy partiyalar mazkur o`zgarishlarning qurboni bo`lgan.

To`rtinchidan, Turkiya va O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik tizimi o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ikki davlat siyosiy partiyalari faoliyatida umumiy va xususiy

jihatlari mavjuddir. Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimi qaror topishi qariyb yarim asrlik kurashlar samarasi bo`lishiga qaramay, ko`ppartiyaviylik davrida ham bir qancha siyosiy beqarorliklar, siyosiy partiyalar faoliyatidagi muammolar kuzatiladi.

O`zbekiston o`z siyosiy mustaqilligini qo`lga kiritgan dastlabki yillaridan boshlab ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tdi. Amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich islohotlar soyasida siyosiy partiyalar faoliyati takomillashmoqda. Qonunchilikka muvofiq, ikki palatali parlamentning shakllantirilishi va Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko`rsatish huquqining siyosiy partiyalarga berilishi siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat qurilishidagi o`rni va rolini oshirishga sharoit yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda siyosiy partiyalar davlat organlari shakllanishi, ayni paytda, faoliyati demokratlashishi jarayonida faol ishtirok etmoqda.

Xulosa

Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida qo`yidagi xulosalar olindi. Turkiyada g`arblashuv jarayonining samarasi o`laroq ijtimoiy-siyosiy hayotga kirib kelgan siyosiy partiyalar, Usmoniylar davrida parlament tashqarisida faoliyat olib borgan bo`lsa, Jumhuriyat davrida partiyalarning ko`pchiligi buyuk partiyalar tarkibidan ma`lum sabablarga ko`ra ajralib chiqib ko`ppartiyaviylik tizimiga zamin hozirlay boshlaganar. Ikkinchi jahon urushigacha mamlakatda birpartiyaviylik tizimi barqaror bo`lgan. Mustafo Kamol Otaturkning inqilobiy g`oyalari zamirida qurilgan Jumhuriyatda Jumhuriyat Xalq Partiyasi mamlakatning yagona hukmron partiyasi edi. To`g`ri, bu davrda yangi partiya uzish uchun harakatlar bo`ldi, biroq mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bardavomiyligi va mamlakat barqarorligini o`ylab Otaturk bu partiyalarni taqiqlab qo`ygan. Bundan tashqari, Turkiya Respublikasi bevosita Sovet Ittifoqining yordami bilan tashkil topgan. Shuning uchun, boshqaruv xususiystlari mamlakatning tashqi siyosatiga bog`liqlikda rivojlangan. Ikinchi jahon urushidan keyin esa, dunyodagi siyosiy manzara o`zgarishi va ikkinchi jahon urushi keltirib chiqargan omillar, shuningdek Ismet Inenyuning tashbbusi soyasida Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimi qaror topdi. Bugungi kunda Turkiyada 68ga yaqin siyosiy partiyalar faoliyat olib bormoqda. Ko`ppartiyaviylik tizimi Turkiyaning demokratik taraqqiyotga bergan munosib javobi bo`lishi bilan birga malakatdagi siyosiy beqarorliklarga ham sabab bo`lgan. Oltimishinchi, yetmishinchi, va saksoninchi yillaragi harbiy mudoxalar fikrimizning isbotidir. Harbiylarning o`zlarini Otaturk g`oyalarining himoyachilari deb hisoblab ket-maket uch marta davlat to`ntarishini amalga oshirishlari bir qancha siyosiy partiyalarining yopilishiga sabab bo`lgan. Bugungi kunda Turkiyada siyosiy partiyalar ko`p bo`lishiga qaramasdan siyosiy dasturlari rasmiy ideologiya asosida tuzilgan. G`arb namunasidan farqli ravishda Turkiyadagi siyosiy partiyalar davlat mafkurasi asosida faoliyat dasturlarini belgilaydilar. Bundan tashqari Turkiya siyosiy partiyalarining taqqiqlanishi va uning huquqiy asosi G`arb namunasidan biroz farq qiladi. Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tishidan bugungi kunimizgacha

yegirma oltita siyosiy partiya yopilgan . TBMM Tadqiqot Markazi tomonidan 15 Yevropa mamlakatlarida siyosiy partiyalar yopilish namunalariga qarab tayyorlangan qiyosiy tahlil natijalariga ko`ra, o`n bir davlatda partiyalar yopilishi umuman ko`zatilmasa, qolgan boshqa 4 davlatda bu hol juda o`z sodir bo`lgan.¹ “Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi o`ng va so`l siyosiy partiyalar ilgari surayotgan g`oyalar, “sistema”, “davlat”, “rasmiy ideologiya” kabi umumiy tushunchalar emas, to`g`ridan to`g`ridan “shaxs”, “huquq”, “erkinlik”, “siyosiy aralashuv” kabi tushunchalardan iboratdir.” Turkiyadagi siyosiy partiyalar , juda ko`p sonli² bo`lishiga qaramasdan, davlat tomonidan ilgari surilgan “rasmiy ideologiya” asosida faoliyat olib boradilar. Turkiya tarixida siyosiy partiyalar ham jamiyat hayotida, ham davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib ayta olamizki, siyosiy partiyalar, turk demokratiyasining voz kechib bo`lmaydigan asosidir.

Turkiyada tashkil topgan siyosiy partiyalar o`z dastur va nizomlarida avvalo Otaturkning inqolibiy g`oyalariga ko`ra, harakat etishlarini bayon etadilar. Undan so`ng, partiyaning tashkiliy tuzilishi, disiplini va falsafasi kabi xususlarda shiorlar ishlab chiqiladi. Bu nuqtadan harakat etganlari uchun, siyosiy partiyalar demokratiyada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy farqlilashuvni siyosiy arenaga olib chiquvchi tashkilot bo`lishlari talab etilar ekan, barcha partiyaning ayni qadriyatlarga urg`u beruvchi total g`oyalardan sug`orilishlari ma`lum bo`lmoqda. Bu ham partiyalarning G`arbda bo`lganidek, birbirlari bilan asosli ravishda kurashadigan dasturlar va siyosiy qarashlarning rivojiga to`sqinlik qiladi. Turkiya siyosiy partiyalarining mafkuraviy manzarasi mamlakatning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, tashqi siyosiy faoliyatdagi muvaffaqiyat qaysidir ma`noda siyosiy partiyalar faoliyatiga bog`liqdir. Ma`lumki, Turkiya Yevropa ittifoqiga a`zo bo`lishga harakat qilib kelmoqda. Yevropa ittifoqiga a`zolik jarayoni iqtisodiy muammolarning hal etilishi bilan bog`liq bo`libgina qolmay, bevosita demokratiyaga erishish ham kutilgan holdir. Turkiya

¹ TBMM Araştırma Merkezi Raporu Sonuç Duyurusu: <http://www.meclishaber.gov.tr/develop>.

² 60 dan ortiq

respublikasida amalga oshirilgan davlat to'ntarilishlari siyosiy partiyalar faoliyatiga ham ta'sir o'tkazgan. 1982-yildagi konstitutsiya va siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgarishlar buning isbotidir. Taqiqlangan va yopilgan siyosiy partiyalar mazkur o'zgarishlarning qurboni bo'lgan.

Turkiya siyosiy partiyalarining tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek iqtisodiy-molyaviy manbalarini tadqiq etib, mazkur xulosalar hosil qilindi.

Birinchiidan, Turkiya siyosiy partiyalarining tashkiliy-huquqiy asoslari Turkiya konstitutsiyasi va 1965-yildagi "Siyosiy partiyalar to'g'risidagi" qonunga asoslanadi. Siyosiy partiyalar faoliyati Konstitutsion Sud tomonidan nazorat qilinadi.

Ikkinchiidan, Turkiyadagi siyosiy partiyalar o'z mavjudliklarini saqlab qolishlari uchun, mustahkam molyaviy manbaga ega bo'lishlari kerak. Molyaviy xarajatlar asosan davlat tomonidan beriladigan xazina yordami orqali amalga oshiriladi. Turkiyada amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, siyosiy partiyaga davlat yordami berilishi uchun, qo'ydagi ifoda etilgan shartlarni bajarishi kerak.

- Bosh byudjet daromadlarining belgilangan miqdordagi hissasini to'langan bo'linishi;

- Oliy saylov Komessiyasiga ko'ra, oxirgi deputatlik saylovlariga qo'shilish huquqiga ega va 10%lik baraj tizimiga muvofiq kelishi;

- Asosiy deputatlik saylovlarida 10% ovoz olmagan bo'lsa ham, yalpi ovozning 7%ni olgan bo'lishi;

Demak, Turkiya siyosiy partiyalari nafaqat hukumat tuzishda o'z so'zi bilan qatnashish huquqi uchun balki, davlat tomonidan beriladigan xazina yordami uchun ham kurashadilar.

Uchunchidan, Turkiya respublikasida amalga oshirilgan davlat to'ntarilishlari siyosiy partiyalar faoliyatiga ham ta'sir o'tkazgan. 1982-yildagi konstitutsiya va siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgarishlar buning isbotidir. Taqiqlangan va yopilgan siyosiy partiyalar mazkur o'zgarishlarning qurboni bo'lgan.

To`rtinchidan, Turkiya va O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik tizimi o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ikki davlat siyosiy partiyalari faoliyatida umumiy va xususiy jihatlar mavjuddir. Turkiyada ko`ppartiyaviylik tizimi qaror topishi qariyb yarim asrlik kurashlar samarasi bo`lishiga qaramay, ko`ppartiyaviylik davrida ham bir qancha siyosiy beqarorliklar, siyosiy partiyalar faoliyatidagi muammolar kuzatiladi.

O`zbekiston o`z siyosiy mustaqilligini qo`lga kiritgan dastlabki yillaridan boshlab ko`ppartiyaviylik tizimiga o`tdi. Amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich islohotlar soyasida siyosiy partiyalar faoliyati takomillashmoqda. Qonunchilikka muvofiq, ikki palatali parlamentning shakllantirilishi va Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko`rsatish huquqining siyosiy partiyalarga berilishi siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat qurilishidagi o`rni va rolini oshirishga sharoit yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda siyosiy partiyalar davlat organlari shakllanishi, ayni paytda, faoliyati demokratlashishi jarayonida faol ishtirok etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1.1 O'zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni. 26 dekabr 1996 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) www.lex.uz.

1.2 Turkiye “Siyasi partiler” kanunu. 1965-y (1982 yil deg'isikleriyle) Google.com.tr.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

3.1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari .T.:O`zbekiston , 1997,-486 b.

3.2.Karimov I. A .Tarixiy hotirasiz-kelajak yo`q.T.: O`zbekiston , 1998,-123 b.

3.3 Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l - demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. 11-tom. - T.: O`zbekiston, 2003 - 112 b.

3.4 Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o`z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog`liq. - T.: O`zbekiston, 2004,-420 b.

3.5 Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch.Toshkent.: Ma`naviyat, 2008,-176 b.

III. Asosiy adabiyotlar

3.1 Akşin Sina. Ana Çizgileriyle Türkiye'nin Yakın Tarihi, İmaj Yayıncılık, Ankara.1996, - 604 s.

3.2 Akşin Sina. Kısa Türkiye Tarihi.- İstanbul.: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008, - 400 s.

3.3 Akşin, Sina. (2000). Türkiye Tarihi-Çağdaş Türkiye.-İstanbul: Can Yayınları, 2003, - 200 s.

3.4 Anvar Qosimov Turkiya - T.: O`zbekiston, 1992, - 247 b.

3.5 Duman Doğan. Demokrasi Sürecinde Türkiye'de İslamcılık.- İzmir: Dokuz Eylül Yayınları, 1999, - 425 s.

- 3.6 Erdoğan Mustafa (1992), Liberal Toplum ve Liberal Siyaset - Türkiye'de Demokrasiye Geçişin Deneyimi (1945-1950).- Ankara: Siyasal Kitapevi, 1998, 300 s.
- 3.7 Erdoğan Mustafa. Liberal Toplum ve Liberal Siyaset -Türkiye'de Demokrasiye Geçişin Deneyimi(1945-1950)-Ankara: Siyasal Kitapevi, 1992,- 304 s.
- 3.8 Ergun Özbudun. The Institutional Decline Of Parties In Turkey, Political Parties and Democracy, Edited by Larry Diamond and Richard Gunther.-Baltimore and London: The Johns Hopkins University Press, 2001,- 238 p.
- 3.9 Hasan Celal Güzel, Prof. Dr. Ali Birinci.Genel Türk tarihi.- Ankara: Timor, 2000, - 410 s.
- 3.10 Ömer Çaha . Türkiye'de siyasal partiler ve Arupa Birliği.:A. -Istanbul yayinlari, 2000, - 280 s.
- 3.11 Sağlam Fazıl. Siyasal Partiler Hukukunun Güncel Sorunları. -İstanbul: Beta Yayınları, 1999, - 380 s.
- 3.12 Şahin, Atacan.Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları, Erişim Tarihi: 20.05.2011, Erişim Adresi: www.siyasaliletisim.com
- 3.13 Tefvik Çavdar.Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara :İmge Kitabevi, 1996, - 460 b.
- 3.14 Данилов В.И. «Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжатется» -М.:Восток, 1998, -304 с.
- 3.15 Киреев Н.Г. «История этатизма в Турции.» –М.:Наука, 1991, - 356 с.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

- 4.1.B.Aliyev, A.Rahmonov. O`zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning yuksak natijalari, Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan.- Toshkent: Sharq, 2011, - 246 b.
- 4.2. Kapani Münci. Politika Bilimine Giriş - İstanbul: Bilgi Yayınevi, 1992, - 160.s.

- 4.3. M.Lafasov. U. Jo`rayev. Jahon tarrxi-Toshkent: Muharrir, 2007, - 259 b.
- 4.4. Keyman, Fuat E.The Principle of Fairness in Turkey - EU Relations.-Ankara: Turkish Policy Quarterly, 2004,- 283 s.
- 4.13 Erdoğan Mustafa. Liberal Toplum ve Liberal Siyaset - Türkiye'de Demokrasiye Geçişin Deneyimi (1945-1950).: -Ankara: Siyasal Kitapevi, 1992,- 218 b.
- 4.14 Mehter Hamdi. Siyasi Partilerin Mali İşlemleri ve Denetimleri, - Ankara: Turmob Yayınları, 2008, 324 b.
- 4.15 I.Bekov, K. Hamidova. Saylov va siyosiy partiyalar. -T: O`zbekiston, 2009, - 45 b
- 4.5 Ahmet Taner. Siyaset Bilimi.- Eskişehir: Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2004, 127s.
- 4.6 Yararsoy Dursun.Temsili Demokrasinin Gelişiminde Siyasal Partiler Kavramı. - Ankara: websitem.gazi, 2002, - 250 s.
- 4.7 Akyol Ozgun. Türkiye'de Siyasi Partilerdeki Mevcut Muhasebe Sisteminin İncelenmesi ve Denetimi. - İzmir Dokuz Eylül Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2009, - 324 s.
- 4.10 Örmeci, Ozan, Türkiye'nin Çok Partili Sisteme Geçışı, Erişim Tarihi: - Ankara: Siyasal Kitapevi, 2011, - 452 b.
- 4.11 Korkut Baratov,Turkiyede Devletcelik Savas- Ankara: 1982, - 123 s.
- 4.12 Mehmet Kabasakal, Türkiye'de Siyasal Parti Örgütlenmesindeki Kısıtlamalar. Tesav Sempozyumu: Siyasi Partiler Ve Demokrasi.- Ankara: Tesav Yayını, 1995, - 235 s.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

- 5.1 Benhür Çağatay A. 1945-1946 Yıllarında Türkiye'de Politik Gelişmelere Genel Bakış // Journal of Qafqaz University, 2008 - Sayı: 24.
- 5.2 Kartal Cemile Burcu Türk Siyasal Hayatında Beyaz İhtilal: 1950 Seçimleri,// Atatürk Dergisi, Cilt: 3, 2003- Sayı: 4.

5.3 Marşap Beyhan ve Yıldız Akbulut. Türkiye’de Siyasi Partilerce Uygulanan Muhasebe Sisteminin Değerlendirilmesi ve Kamuyu Aydınlatma İlkesi Açısından Siyasi Partilerde Uygulanacak Muhasebe Sistemi ve Muhasebe Denetimi Onerisi // Muhasebe ve Denetime Bakış Dergisi.- İstanbul: Siyasi bilim, 2003, - Sayı:7.

5.4 Türkiye’nin çok partili parlamenter sisteme geçiş sürecinde siyasi partilerin ekonomi politikaları // Akademik bakış dergisi. – Ankara: Kultur yayinlari, 2011, - Sayı: 25.

VI. Internet saytlari

- 6.1 <http://www.sredaziya.org>.
- 6.2 <http://www.meclishaber.gov.tr/develop> (BMM Araştırma Merkezi)
- 6.3 <http://www.chp.org.tr> (CHPnin o`zel sitesi)
- 6.4 <http://www.akp.org.tr> (AKPnin o`zel sitesi)
- 6.5 <http://www.bbp.org.tr> (BBPnin o`zel sitesi)
- 6.6 <http://www.dsp.org.tr> (DSPnin o`zel sitesi)
- 6.7 <http://www.dyp.org.tr> (DYPnin o`zel sitesi)
- 6.8 <http://www.siyasaliletisim.com> (Siyasi bilimler merkezi)

JHP (JUMHURIYAT XALK PARTIYASI)



Mustafo Kamol Otaturk va safdoshlari tarafidan 1923-yilda 9-sentyabrda tashkil etildi. Partiya dasturiga nazar tashlaganda jinsiy tenglik va ko'pmadaniyatlilikdan tashqari, barcha leberal demokratik qadriyatlarga yaqinlashuvi tufayli so'l tomonga o'tgan. JXPning dasturida siyosiy leberalizmning asosiy qadriyatlari hisoblangan shaxs va erkinlik tushunchalariga etibor berish bilan birga tenlik, o'zlik, ozinlik kabi tushunchalarga e'tibor qaratgan.

“JXPning qarashi, qaysi ildizdan kelib chiqishidan qat'iy nazar, qaysi til va dinga mansub bo'lishiga qaramay hech kim “ozinlik” maqomida bo'lmaydi. Barcha davlatni manbaya va egasidir” –jumllaridan yuqoridagi fikrlarimizning isbotini ko'rishimiz mumkin. Ushbu qarashlar iqtisodiy siyosatda ham namoyon bo'ladi. JXP iqtisodda tashabbus va xususiy mulk nisbatan xayrixohligini so'l siyosiy chizgida ko'rsatadi.

www.chp.org.tr